



O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Buxoro davlat universiteti



Kafedra "Adabiyotshunoslik"

"Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida xarakter yaratish mahorati"

Mavzuidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Muallif _____ S.R.Axmedova _____

Asosiy maslahatchi _____ G'.N.Murodov _____

Taqrizchi _____

Buxoro – 2018 yil

Buxoro davlat universiteti

Oliy o'quv yurti

Filologiya fakulteti "Adabiyotshunoslik" kafedrasida filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili) yo'nalishi 6-2 UZB-14 guruhi

Tasdiqlayman_____

Kaf. mudiri_____

2018 yil "_____"_____ sana

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba_____ Axmedova Saida Ruzievna_____
(Familiya, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi Shuxratning "Oltin zanglamas" asarida xarakter yaratish mahorati.

"_____"_____2018y kafedra majlisida ma'qullangan. Protokol №

2. Bitiruv ishni topshirish
muddati_____

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar _____

4. Hisoblash tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi (lar)

№ № T/R	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F.I.Sh	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№ t/r	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			

Bitiruv ishi rahbari _____ G'.N.Murodov _____
(Familiya ismi sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____ S.R.Axmedova _____
(Familiya ismi sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana 2017 yil.

MUNDARIJA

Kirish.....	7
I bob. Roman badiiy tizimida xarakterning o' rni.....	11
1.1.O'zbek adabiyotshunosligida xarakter muammosining o'rganilishi....	11
1.2 Shuhrat nasriy asarlarida badiiy uslub va qahramon xarakterining aks ettirilishi	20
II bob. “Oltin zanglamas”da xarakterlar tizimining o'ziga xosligi.....	35
2.1 Romandagi yetakchi obrazlarda insoniylik va milliylik xususiyatlari..	35
2.2 Asar personajlarida mustabid tuzum illatlarining ifodasi.....	46
Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	55

Mavzu: Shuhratning “Oltin zanglamas” asarida xarakter yaratish mahorati

Reja:

Kirish.

I bob. Roman badiiy tizimida xarakterning o’rni

- 1.1 O’zbek adabiyotshunosligida xarakter muammosining o’rganilishi
- 1.2 Shuhrat nasriy asarlarida badiiy uslub va qahramon xarakterining aks ettirilishi

II bob. “Oltin zanglamas”da xarakterlar tizimining o’ziga xosligi

- 2.1 Romandagi yetakchi obrazlarda insoniylik va milliylik xususiyatlari
- 2.2 Asar personajlarida mustabid tuzum illatlarining ifodasi

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borishi talab qilinadi. Bunday oqilona yo'lda, muhtaram birinchi Prezidentimiz ta'kidlab ko'rsatganlaridek, «Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkurlari va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma'naviy qadriyatlari iqtisodiy o'zgarishlarimizning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi»¹

“Biz doimo ziyolilarni, ijodkorlarni qo'llab quvvatlashimiz kerak, deydi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev. Ular yaratgan ibratli asarlarni, she'rlarni yoshlarimiz qancha ko'p o'qisa, ma'naviyati, ma'rifati yuksaladi, demakki, vatanparvar bo'ladi. Vatanparvarlar qancha ko'p bo'lsa, mamlakatimiz ham shuncha ravnaq topadi.”²

O'zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. Yozuvchilar ana shu vazifani ado etishda o'z iste'dodlari ko'lamini, o'z uslublarining rang-barang qirralarini namoyish etadilar. Yozuvchining uslubi va badiiy mahorati masalasi adabiyotshunoslikda hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Uslub yozuvchining o'ziga xosligini ko'rsatadigan adabiy hodisa bo'lsa, qahramon obrazi badiiy asar mohiyatini oydinlashtirishda muhim estetik ijtimoiy-badiiy ahamiyatga ega masaladir. Demak, individual uslub va qahramon obrazi talqinini tasdiq etish yozuvchining

¹Karimov I.A. Aqliy va ma'naviy salohiyat-yangi jamiyat poydevori. Ma'naviyat yuksalishi yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998, 49-6et.

²Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., “O'zbekiston”, 2017, 104 bet.

ijtimoiy voqealik haqida, davr kishilari, ularning faoliyati va o'y-kechinmalari to'g'risida o'ziga xos badiiy fikr yuritishi hamda poetik idrok etilgan voqelikni badiiy tahlil qila olishi xususida muayyan nazariy umumlashmalar chiqarish imkonini beradi. Qahramon xarakteri talqini masalasi yozuvchining individual uslubiga xos muammodir. Badiiy adabiyotda uslub muammosi jahon, jumladan, o'zbek adabiyotshunosligida ilmiy-nazariy jihatdan jiddiy tadqiq etilgan. Bu o'rinda M.B.Xranchenko, A.N.Sokolov, G.N.Pospelov, E.Sidorov, P.Palievskiy kabi rus olimlari, H.Yoqubov, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, U.Normatov, M.Sultonova, N.Vladimirova, N.Shukurov, H.Boltaboev, T.Rasulov singari o'zbek adabiyotshunoslarining tadqiqotlarini qayd etish o'rinlidir.

Buyuk rus yozuvchisi L.N.Tolstoy uslubni ulkan hayotiy tajriba sifatida baholaydi, uni yozuvchining ovozi, adabiy qiyofasini ko'rsatadigan belgi sifatida tushunadi.³ Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, uslub yozuvchining hayotga, odamlar taqdiriga o'ziga xos idrok bilan yondoshish, mavzu tanlash va voqealikni badiiy aks ettirishda boshqalardan farq qiladigan jihatidir. Yozuvchi uslubini aniqlashda badiiy asarning barcha unsurlari – g'oya, mavzu, obrazlar tizimi, syujet va kompozitsiya, til, janriy belgilar, ijodiy metod kabilar asos qilib olinadi. Demak, yozuvchi ijodiga keng qamrov bilan yondashish bir ijodkorning boshqa bir ijodkordan farqlanib turadigan o'ziga xos mahoratini oydinlashtirishga imkon beradi. V.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, «uslub-iste'doddir». Biroq shu o'rinda Byuffonning aforizmga aylanib ketgan «uslub – bu insondir» degan so'zlarini ham eslash joizdir. O'zbek adabiyoti, shu jumladan, nasri bugungi kunda yozuvchilarimizning uslubiy izlanishlari natijasida yangi ijodiy pag'onaga ko'tarilmoqda. Shu sababli ham, yangi adabiyotimizning boshlovchilari – Fitrat, A.Qodiriy, Cho'lpon, Hamza, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Shuhrat kabi

³ Толстой Л.Н. ПСС. Т. 30-М., 1949. – С.112.

yozuvchilar bilan O.Yoqubov, P.Qodirov, Said Ahmad, Sh.Xolmirzaev, O'tkir Hoshimov kabi bugungi o'zbek nasrining iste'dodli namoyandalari uslubini farqlab, tahlilga kiritish lozim. Fitrat «Adabiyot qoidolari» kitobida mumtoz adabiyot vakillari bilan o'ziga zamondosh bo'lgan adiblar uslubini farqlab ko'rsatadi. Ana shu tajriba asosida XX asr boshlarida ijod etgan adiblar uslubi bilan bizga zamondosh bo'lgan yozuvchilar uslubini farqlash lozim. Shuhrat asarlari qahramonlarining o'ziga xos ma'naviy olami, qanday badiiy talqin etilganligi, yozuvchi asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda qahramonlarining umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarini o'quvchi shuuriga ko'chirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlash masalasi ilmiy ishimizning dolzarbligini belgilashga yordam beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Shuhrat ijodi doimo adabiy jamoatchilik e'tiborida bo'lgan. Yozuvchi haqida quyidagi ijodkorlar o'z xotiralarida ma'lumot berganlar: Hakim Nazir "O'chmas xotira", Shukrullo "Ijodkor matonati", Pirimqul Qodirov "Ma'naviy jasorat", Ibrohim Rahim "Siymosi hamon ko'zim oldida", Mirmuhsin "Ulkan iste'dod", Nuriddin Muhiddinov "Orzulari ko'p edi", O'tkir Hoshimov "Halollik", Po'lat Mo'min "Shuhratning shuhrati", Matyoqub Qo'shjonov "O'tdan ham, suvdan ham...", Umarali Normatov "Adibning baxti", Malik Murod "Hamisha uyg'oq adib", Ma'ruf Jalil "Saboq", Oydin Hojiyeva "Yaxshilik", Yo'ldosh Sulaymon "Bahorning oppoq- oppoq gullari", Muhammad Ali "So'nmas chiroq", Hafiz Abdusamatov "Vatanparvar adib", Naim Karimov "Dunyoning shodligi shoirning mulkidir", Sayyor "Mehribonim", Rahim Muqimov "Chin inson va ajoyib ijodkor edi u", Said Aliyev "Shuhrat Buxoroda".

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur malakaviy ishimiz oldiga qo'yilgan asosiy maqsad Shuhratning "Oltin zanglamas" romanini tahlil etish asosida uning o'ziga xos ijodiy uslubi va badiiy mahoratini ko'rsatish, shuningdek, qahramon xarakterlari ruhiyatini tasvirlash shakllari va ularning g'oyaviy-badiiy

vazifalarini yoritishdan iborat. Yozuvchining individual uslubini ko'rsatish uchun romandagi qahramon obrazining yaratilishiga alohida ahamiyat berildi. Chunonchi, roman qahramonlarining ma'naviy olami, qahramonning milliy sharoit bilan uzviy bog'liq holat harakatlanishi, uning milliy va umuminsoniy xarakterini yoritish asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qo'yildi. Shu bois ko'zlangan maqsadga erishish uchun tadqiqotimiz oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardir:

- xarakterlar ruhiyatini tasvirlashning mavjud barcha shakllarini yozuvchi romanlari misolida aniqlash;
- ruhiyat tasvirining barcha shakllariga xos g'oyaviy - estetik imkoniyatlarni ochib berish;
- ruhiyat tasviri shakllarining qahramon xarakterini to'laqonli yaratishdagi badiiy vazifalarini yoritish;
- Shuhrat asarlarining badiiy uslubiy, til xususiyatlarini kuzatish;

Yozuvchining individual uslubi va badiiy mahoratini aniqlashda til va badiiy tasvir vositalari muhim hodisa hisoblanadi. Shu sababli ishda Shuhrat asarlaridagi g'oyaviy niyat va badiiy shakl, so'zning badiiy tasvirdagi o'rni kabi masalalarni o'rganish ham asosiy vazifalarimizdan biriga aylandi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Mazkur malakaviy ishimiz kirish, har biri ikkita faslni qamrab olgan ikkita bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob. Roman badiiy tizimida xarakterning o'rni

1.1. O'zbek adabiyotshunosligida xarakter muammosining o'rganilishi

Xarakter — adabiyot va san'at asarlarida xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvor (xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyat)ning tarixan aniq tipini mujassamlantirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi. Badiiy xarakter umumiy (takrorlanuvchi) va xususiy (takrorlanmaydigan); ob'yektiv (badiiy xarakterga proobraz bo'lib xizmat qilgan kishi hayotining ijtimoiypsixologik asoslari) va sub'yektiv (proobrazning muallif tomonidan idrok va talkin etilgan) belgilarning o'zaro uyushgan hosilasidir. Adabiyot va san'at asarlaridagi xarakter tushunchasi falsafa, sotsiologiya va psixologiyadagi ayni tushunchadan inson obrazining konsepsiyaviyligi bilan ajralib turadi⁴.

Xarakter tushunchasi ilk marta Yunonistonda, badiiy ijod ruhiy madaniyatdan ajralib chiqqan bir davrda paydo bo'lgan. Xarakterning antik davrda ifodalagan mazmuni uning hozirgi talqinidan keskin farq qilgan. "...Shoirilar ishtirokchilarning xarakterlarini tasvirlash uchun ularni asarga olib kirishmaydi, — deb yozgan edi Aristotel "She'riyat san'ati to'g'risida"gi risolasida, — balki

⁴ Тимофеев Л. И., Основы теории литературы. - М.: 1971. – С. 59.

ularning xatti-harakatlari orqali xarakterlarini ham (asar doirasiga) jalb etishadi"⁵. Antik davr tragediyasida ham inson obrazi (XARAKTER) emas, balki voqea asar g'oyasini ifodalab kelgan va muhim badiiy obraz hisoblangan; personajlar asardagi muayyan badiiy vaziyatda o'ynagan roli bilan bir-biridan farqlangan.

Personaj xarakterining mustaqil g'oyaviy-badiiy ahamiyatga ega ekanligi antik davrdayoq anglashila boshladi. Chunonchi, Plutarx "Parallel hayotnomalar" asarida qahramonlarni ular "taqdir"i va xarakteriga ko'ra o'zaro qiyoslagan. "xarakter" atamasining bunday 2 xil ma'noda qo'llanishi 18-asrgacha davom etib keldi. Adabiyot va san'atning keyingi rivojlanishi natijasida xarakter fabuladan, asar syujetidan tamomila ajralib chiqdi.

Uzoq davom etgan tarixiy-adabiy jarayonda uyg'onish va klassitsizm davrlari alohida ajralib turadi. Uyg'onish davrida xarakter xulq-atvorning muayyan belgilaridan forig' bo'lib, umuminsoniy hodisa sifatida namoyon bo'la boshladi. U nafaqat antik davr va o'rta asr uchun muhim bo'lgan madaniylik va yovvoyilik, diniy e'tiqod va e'tiqodsizlik singari o'zaro qarama-qarshi belgilardan, balki turli ruhoniylar sifatlaridan ham holi bo'lib bordi. Uyg'onish davri qahramonlarining xarakterida harakatchanlik, o'zgaruvchanlik ko'zga yaqqol tashlandi. Klassitsizm xarakterning yana avvalgi statik holatiga qaytdi va ayni paytda diqqat-e'tiborini shaxsning ongiga — "burch" bilan "ko'ngil"ning ikkisidan birini tanlash masalasiga qaratdi. Romantizm esa xarakterni shaxsning ichki olami bilan mushtarak bo'lgan hodisa sifatida talqin etdi. XIX asrda tanqidiy realizm maydonga kelishi bilan xarakter shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatning uzviy birligi sifatida uzil-kesil shakllandi⁶.

Adabiyot va san'at asarlarida qahramon shaxsining tashqi va ichki mohiyati uning xarakterini belgilaydi hamda bu qahramon xakteri muallifning va boshqa personajlarning u haqidagi tavsifnomalari, shuningdek, syujet rivojidadagi o'rni va

⁵Храпченко М. Б., Горизонти художественного образа, М.: 1982.-С. 123.

⁶ Храпченко М. Б., Введение в художественную характерологию, Самарканд, 1983.

roli bilan inkishof etiladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek xarakteri, bir tomondan, yozuvchi bilan birga marg'ilonlik birodarlarning tavsifnomalari, baholari, munosabatlari, ikkinchi tomondan, mazkur qahramonning asar syujetida, voqealar rivojida o'ynagan roli orqali aniq qirralar kasb etadi. Shu fikr romandagi boshqa yetakchi qahramonlar xarakteriga ham oiddir.

«Adabiyot va san'at asarlarida tasvirlangan qahramonlar har doim ham xarakter darajasiga ko'tarila bermaydi. Xarakter obrazdan farqli o'laroq, yozuvchidan katta mahoratni, qahramonning muayyan tarixiy-ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy sharoitdagi o'ziga xos o'rni va xususiy belgilarini teran ochishni taqozo etadi. Shu ma'noda epik janrlar yozuvchiga qahramon xarakterini yorqin yaratish imkonini beradi. Masalan, M. Sholoxovning "Inson taqdiri" hikoyasida murakkab va mashaqqatli hayot yo'lini bosib o'tgan, ammo shunga qaramay, o'zining ezgu insoniy fazilatlariga gard ham yuqtirmagan Sokolov xarakteri katta mahorat bilan yaratilgan. Bunday holni G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam", "Hasan Kayfiy", Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Anor" kabi hikoyalarida ham uchratish mumkin.

Har bir milliy adabiyotning boyligi qahramonlar xarakterining rang-barangligi bilan ham belgilanadi. Agar Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga Otabek va Kumush, Yusufbek hoji va O'zbek oyim singari o'z siymosida o'zbek xalqi tarixining muayyan tarixiy davrini va shu xalqning muayyan qatlamini ifodalagan XARAKTERlarni olib kirgan bo'lsa, Oybek XX asr boshlarida yashagan Yo'lchi, Gulnor, Shoqosim, Qoratoy, Yormat singari XX asr boshlarida yashagan mehnatkashlarning rang-barang tiplari bilan boyitdi ("Qutlug' qon"), Navoiy, Husayn Boyqaro, Nizomulmulk, Majididdin singari tarixiy, Sultonmurod, Zayniddin, To'g'onbek singari to'qima qahramonlar xarakterini kashf etdi ("Navoiy"). Shunday o'ziga xos xarakterlar Shayxzoda, Mirtemir, S. Abdulla, M.

Osim, R. Fayziy, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh. Xolmirzayev kabi yozuvchilar ijodida ham ko‘plab uchraydi»⁷.

Badiiy kashfiyot darajasiga ko‘tarilgan xarakter, ijobiy yoki salbiy mohiyatga ega bo‘lishidan qat’i nazar, har bir adabiyotning badiiy boyligini tashkil etib, o‘zi mansub bo‘lgan xalqning milliy xarakterini, milliy o‘ziga xosligini badiiy mujassamlantirgani bilan ahamiyatlidir.

Badiiy adabiyotning predmeti sifatida xarakter tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Badiiy xarakter bu muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o‘zida uyg‘un mujassam etgan inson obrazi hisoblanadi. Badiiy xarakter o‘zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy – psixologik realligi (bu o‘rinda xarakterning real asosi, ya’ni uning hayotiy kuzatishlar yoki muayyan prototip asosida yaratilgani nazarda tutiladi) badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo‘lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etlishi va g‘oyaviy – hissiy baholanishi subyektiv tomonidir. Badiiy xarakterning subyektiv jihati, bir tomondan, uning ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik, badiiyat hodisasi bo‘lishini; ikkinchi tomondan, uning konseptual funksiyaga xoslanishini ta’min etadi. Boshqacha aytganda, adabiyotning badiiy konseptual funksiyasi xarakter orqali amalga oshadi, ya’ni jamiyatning joriy holati xarakterlar vositasida badiiy tadqiq etiladi va yaxlit badiiy konsepsiya ishlab chiqiladi. Aytish kerakki, xarakterning bu qadar katta ahamiyat kasb etishi ko‘proq adabiyot taraqqiyotining so‘nggi davrlarida kuzatiladi. Xususan, antik adabiyotda konsepsiyani ifodalashda xarakter emas, tasvirlangan voqeaning o‘zi hal qiluvchi rol o‘ynagan. Negaki, antik ijodkorlar uchun xarakterning muayyan turg‘un tiplari (zolim, mushfiq va boshqa) mavjud bo‘lib ular asar syujetida shu tipga mos harakatlantirilgan. Uyg‘onish davriga kelib esa qahramon bu turg‘un xususiyatlarni o‘zgartirish, turli niqoblarda harakat qilish imkoniga ega bo‘lgan, ya’ni antik

⁷ Sultonov I., Adabiyot nazariyasi, Toshkent, Fan. 1980.

adabiyotga nisbatan bunda xarakter individual chizgilar ham kasb etgan. Xullas, jamiyatda shaxs maqomining o'zgarib borishi barobarida badiiy xarakterda individuallik salmog'i ortib, inson xakteri unga tabiatan ato etilgan turg'un xususiyatlar jamigina emas, ayni chog'da, davr va muhitning mahsuli ekani ham anglashilib borgan va shu tariqa realizm bosqichiga yaqinlashgan sari adabiyotda badiiy xarakterning roli va ahamiyati ham ortgan. Realizm adabiyotida badiiy xarakter hayotni ko'lamli va teran badiiy idrok etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Zero, badiiy xarakterlarning shakllanishi va rivojlanishi, hayotiy amallari, o'zaro kurashlari, ruhiyati va shu kabilarni tasvirlash orqali voqelikni atroflicha chuqur badiiy idrok etish, unga g'oyaviy hissiy baho berish – badiiy konsepsiyani shakllantirish va ifodalash mumkin bo'ladi.⁸

Umumjahon badiiy adabiyoti xazinasiga o'z hissasini qo'shib kelayotgan o'zbek adabiyotida ham hozirgi paytda klassik tasvir hamda modernistik tasvir yo'nalishlari davom etmoqda. XX asrning birinchi choragidayoq realistik nasrning betakror namunalari o'zbek romanchiligini yuksaklikka ko'tardi. Badiiy ijod amaliyoti realistik tasvirning ijtimoiy, ruhiy determinizm dialektikasiga asoslanishi jahonning ilg'or adabiyotlar tajribasida, shuningdek, o'zbek adabiyotida ham eng sinalgan, aniq va betakror tamoyil ekanligini isbotlab berdi. A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat va Hamza kabi yirik ijodkorlar bu tamoyil boshida turgan bo'lsalar, keyinroq Oybek, A.Qahhor, G'.G'ulom, M.Shayxzoda, Shuhrat kabi ijodkorlar, yana keyinroq esa S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Mirmuhsin kabi, hozir esa Sh.Xolmirzaev, O.Muxtor, T.Malik, M.Mansurov, T.Murod kabi ko'plab adiblar davom ettirmoqda. Ularning barchasi realistik tasvirning asosiy belgisi inson xarakterining xatti-harakatining ijtimoiy-ruhiy determinizm tamoyillari asosida namoyon bo'lishlarini o'z ijodlari misolida isbotlab kelmoqdalar. Shu jihatdan qaralsa, ruhiyat tasviri asosida

⁸ Курунов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиетшунослик лугати. Тошкент, «Академнашр»-2013

«inson va voqealik» muammosi roman janrida oʻziga xos tarzda hal etilmoqda. Mana shundan kelib chiqilsa, Shuhtratning qator romanlaridan “Oltin zanglamas”, “Shinelli yillar”, “Jannat qidirganlar” kabi asarlarini ijtimoiy-psixologik asarlar sifatida baholash mumkin. Chunki mazkur romanlar ijtimoiy hayot va xarakterlarning chuqur ruhiy tahlili bilan boshqalardan keskin farqlanib turadi.

Ruhiyat tasviri keskin ziddiyatlar asosida namoyon boʻladi. Ruhیات tasvirining bu tamoyili uzoq davrlar mobaynida shakllangan klassik tasvirning mohiyatini tashkil etadi. Shu bois L.Ginzburg badiiy psixologizm inson xatti-harakati bilan bogʻliqlikda rivojlanadi, biroq bu dinamika ruhiy munosabatlar tasviridagi muayyan stereotiplarni yoʻqotmaydi, balki ularning yangi shakllarini kashf etadi», deb yozganda haqli edi.⁹ Shu nuqtai nazardan qaralsa, «Oltin zanglamas» romanidagi ruhiyat tasvirining asosiy oʻzagi diyonat (adolat) bilan jaholat oʻrtasidagi shafqatsiz, murosasiz kurashni aks ettirishdan iboratligi ayon boʻladi. Bu kurash qutblari esa ruhan bir-biriga zid xarakterlar, ular oʻrtasidagi keskin ziddiyatlarga boy toʻqnashuvlar va ruhiy kechinmalardan iborat. Asardagi «Muqaddaslik» esa ana shu ziddiyatli davr, undagi dunyoqarashlar qarama-qarshiliklarning ham ijtimoiy-siyosiy, ham ruhiy murosasizligini ochib berish uchun badiiy vositachilik vazifasini, voqealar dinamikasini taʼminlovchi ramziy vosita vazifasini ham ado etadi. «Oltin zanglamas» romanining badiiy yuksakligi shundaki, adib voqealikning faqat koʻz ilgʻaydigan tashqi tomoninigina emas, balki uning mohiyatiga ham nazar tashlaydi, asar qahramonlarning iztirob va shodliklarini ularning ruhiy olami orqali ochishga intiladi. Bu narsa asarda tasvirlangan davrni, undagi shart-sharoitni butun murakkabligi, tarovati va dramatizmi bilan ishonarli aks ettirishga imkon bergan. Romanda obyektivlik bilan subyektivlikning uygʻunlashishi, ruhiyat tasvirining rang-barang vositalar

⁹ Гинзбург Л. О Психологической прозе.- М., С. 285.

orqali chuqurlashishi va noziklashishi, xarakterlar ruhiyatining ijtimoiy voqelik bilan shartlanganligining badiiy asoslanishi o'zbek realistik romanchiligining XX asri 60-70 yillarda yangi bir pog'onaga ko'tarilganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda bir narsaga alohida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Hozir ko'pgina adabiyotshunos va tanqidchilar olmon ruhshunosi Z.Freydning nazariy qarashlari mohiyatiga chuqur kirib bormay ko'r-ko'rona ergashmoqdalar. Albatta, Freydning ruhiy tasvir qarashlari badiiy psixologizm muammolarini hal etishda katta ahamiyatga ega. Lekin uning shunday qarashlari ham borki, biz ular bilan to'la kelisha olmaymiz. Zigmund Freyd ta'limotiga ko'ra «Alibivalentlik (ziddiyatlilik) faktidan kelib chiqib, bizning sezgilarimiz harakati va ziddiyatini anglash mumkin, ambivalentlikning o'zini esa ruhiy dunyoning asosiy va izohlab bo'lmaydigan fenomeni sifatida hisoblash kerak bo'ladi».¹⁰ Ma'lumki, Shuhrat idealidagi badiiy psixologizm aniq tarixiy davrdagi odamlar psixologizmi bo'lib, u to'la ijtimoiy-psixologik determinizm tamoyillari asosida romanda aks ettirilgan. Ma'lumki, diyonat, imon-e'tiqod, ijtimoiy adolat xuddi muhabbat kabi so'z san'atining qadimiy va boqiy mavzu, muammolaridan. Har bir davr uni yangicha qo'yadi, o'zgacha mezonlar bilan baholashni taqozo etadi; qolaversa, har bir adib unga o'zicha yondashadi. Burch, diyonat, adolat muammosi ham xuddi muhabbat kabi adabiyotda birdan-bir maqsad emas. Burch, diyonat davrning katta haqiqatlarini ifodalashga, muhim ijtimoiy masallarni qo'zg'ash, kishilarning ko'ngil dardlarini izhor etishga, L.Tolstoy so'zlari bilan aytganda, inson qalbi haqidagi haqiqatni ochishga qaratilgan taqdirdagina chinakam badiiy qimmatga ega bo'ladi. Afsuski, 50-60 yillari yozilgan qator asarlarda burch, diyonat, adolat biryoqlama, tor, sayoz yoritildi, birdan-bir maqsadga aylanib qoldi; bu borada andozalar paydo bo'la boshladi, burchga sadoqat nuqul nomusi paymol etilgan ayol mehr qo'yishdan iborat qilib ko'rsatildi. Shuhratning asarlari bu xildagi andozalardan yiroq.

¹⁰ Фрейд З. Тотем и табу. –М., Прос. 1923. Ст. 165-166.

Adib asarlari badiiy noqislikdan asrab, unga o'zgacha estetik tarovat baxsh etgan omillar bu ruhiyat tasviri quyuqligi va shakllaridan samarali foydalanilganligidir.

Ruhiyat tahlili (odatda) onglilikni ongsizlikdan, intuitsiyadan, ijtimoiylikni individuallikdan qidirish orqali voqealikning mohiyatini ochishga undaydi. Shuhrat ham realist adib sifatida individual ruhiyatni ijtimoiy ruhiyatdan qidirish lozimligini amaliy jihatdan isbotlab berdi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xarakterlar ruhiyati tasvirida adib jiddiy tanlash, saralash tamoyiliga amal qiladi. Shu bois romandagi voqealar oqimi ravon, izchil mantiqiy uzviylikka ega; xarakterlar ruhiyatidagi rang-baranglik yaxshi ta'minlangan.

Badiiy adabiyotda hayot go'zalliklari, insonning ijtimoiy faoliyati va ma'naviy olami ma'lum bir estetik kategoriyalar orqali o'z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotning estetik kategoriyalari deyilganda, poetik idrok etilgan hayotiy voqealikni tasvirlash yo'llari, ya'ni badiiyat qonuniyatlari silsilasi nazarda tutiladi. Taniqli adabiyotshunos olim Matyoqub Qo'shjonovning fikriga ko'ra «Estetik kategoriya bu hayot go'zalliklarining adabiyot va san'atda in'ikos ko'rinishlarining tasvir yo'llaridir»¹¹.

O'zbek nasri taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan A.Qodriy, G'.G'ulom, A.Qahhor, S.Ahmad, Shuhrat, SH.Xolmirzaev, O.Yoqubov, P.Qodirov, O'.Hoshimov va boshqalarning asarlarida serqirra ma'naviy olam sohibi va o'ziga xos taqdir egasi bo'lgan kishilarning rang-barang obrazlari yaratilgan. Yozuvchilarning qator asarlarida inson hayotining eng shiddatli voqealari chigal taqdirlar-u fojeali kechmishlari, qahramonona voqealarga boy yulduzli onlari o'zining ta'sirchan ifodasini topgan. Umuman, o'zbek nasrchiligida yangi qahramonlar bilan adabiyotimizni boyitgan asarlar talaygina. Romanchilikda yangi qahramonlarning tug'ilishi esa, o'z navbatida, yangi ifoda

¹¹ Qo'shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. II jild. T., 1983. 137-bet.

vositalari, o'ziga xos uslubni talab etadi. Shuningdek, romanchilikda yangi qahramon obrazini yaratish ko'p jihatdan badiiyat-obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, til va uslub kabi vositalar sohasida izlanishni ham taqozo qiladi. Yozuvchi inson taqdiridagi nozik murakkab holatlarni hamda shu inson saviyasidagi muhim xislatlarni, uning ma'naviy olamini tasvirlashga harakat qilsa-yu, ammo yangi ifoda vositalarni topishga erisha olmasa, u o'zining g'oyaviy niyatini to'la ifodalay olmaydi.

Shuhrat qahramonlar xarakterini yaratishda mantiq qonuniyatlariga, ayniqsa, ularning didi, tab'i, temperamenti, hatti-harakati, nutqi kabilarga jiddiy yondoshadi.

Insondagi eslash xususiyati barcha uchun xos, lekin aqli raso, komil shaxslarda bu ruhiy jarayon kuchli, mantiqli va izchil kechadi. Insondagi eslash turli vaziyatlarda turlicha kechadi. Inson beixtiyor, masrur damlarida baxtsiz va mahzun damlarini eslaydi. Ba'zan esa u aksincha og'ir damlarida xushnud va quvnoq damlarini eslaydi. Inson ruhiyatidagi mana shunday tabiiy ruhiy holatdan Shuhrat juda o'rinli foydalanadi.

O'ylash, mulohaza yuritish. Inson ruhiyati o'ta murakkab va rang-barangdir. Shu bois, uning namoyon bo'lmish shakllari ham turlichadir. Shuhrat romanlarida qahramonlarning hatti-harakatlarini, faoliyatlarini ham ijtimoiy va ruhiy jihatdan asoslash maqsadida o'ylash, mulohaza yuritish holatlariga katta e'tibor qaratadi. Chunki asar qahramonlarining o'y-fikr yuritishi uning o'zligini, inson sifatidagi mohiyatini kitobxonga aniqlab berishga imkon beradi. Umuman olganda, mulohaza yuritish, o'ylash psixologik tasvirning eng murakkab ayni zamonda, eng samarador usuli hisoblanadi.

Ruhiyat tovlanishlarini ochishning obyektiv yo'li hamma vaqt muallif bayoni vositasida olib boriladi. Bunday bayon goh xarakterlarning tashqi qiyofalari yoki xatti-harakatlari tasviriga ko'chsa, goh ularning nutqlarini yoxud ichki tuyg'ularini ilg'ashga ko'chadi.

Xarakter ruhiyati, nutqi va harakatidagi g'alayonni to'g'ri, tabiiy uyg'unlikda tasvirlanishi badiiy asarning hayotiyligini ta'minlaydi. Muloqot jarayonida xarakterlar ruhiyatini ochishda Shuhrat katta tajriba orttirgan. Shu bois, uning qahramonlari o'rtasidagi barcha muloqotlar kishiga qattiq ta'sir qiladi, muloqot ishtirokchilarining ruhiyati aniq sezilib turadi. Bunga adib so'z, xatti-harakat va holat tasvirini birgalikda, uyg'unlikda olib borish, aniqrog'i, ruhiyat tasvirining sintetik usulini qo'llash orqali erishadi.

Umuman olganda, romanlarda xarakterlar ruhiyatini ochishda personajlar o'rtasidagi muloqotlar juda ko'p foydalanilgan. Bu muloqotlar asarning g'oyaviy yo'nalishi, ijodkorning maqsadi, asarning konsepsiyasini aniqlab berishdan tashqari, unga kuchli ta'sirchanlik, keskin drammatizm va hayotiylik bag'ishlagan.

Xarakterlar ruhiyati bilan tabiat manzaralari va joylar tasvirining yonma-yon olib borish adabiyotda ko'p istifoda etiladigan usul bo'lib, bu usul asardagi tabiat manzaralari va joylar tasviri qahramon ruhiyatini ochishga, qahramon kayfiyati esa joy yoki tabiat manzaralari tasvirini qabul qilishga xizmat qiladi.

Ruhiyat va tabiat uyg'unligi ijodkor tomonidan o'ylab topilgan hodisa emas, balki obyektiv amal qiluvchi qonuniyatdir. Mana shuning uchun, adib qissalarida ruhiyat va tabiat tasviri uyg'unligi qonuniyatiga amal qiladi. Olim yozuvchi uslubi va badiiy tasvir usullari istilohlarini alohida obyekt sifatida, birini-ikkinchisidan ajratib izohlashga harakat qiladi. Bu nuqtai nazar, bizningcha, muammolidir. Aslida uslubni o'rganmoqchi bo'lgan olimlar yozuvchi asarlaridagi badiiy tasvir usullarini tadqiq etadi. Adabiy priyomlar va badiiy tasvir usullari individualligi keng ma'noda uslubni yuzaga keltiruvchi elementlardir.

1.2. Shuhrat nasriy asarlarida xarakterlarning o'ziga xosligi

Shuhrat ijodiy uslubini tashkil etuvchi elementlardan biri badiiy- psixologik talqin va portret yaratish mahoratini alohida ta'kidlash zarur. Chunki qahramon xarakterini ham ichki (psixologik talqin) ham tashqi (portret) tomonidan badiiy tadqiq etish imkoni yaratiladi.

Har bir yangi asari bilan ijodiy parvoz ufqlarini kengaytirib borgan Shuhrat o'z asarlarida portret yaratishning yangi imkoniyatlarini izlab topdi, kashf etdi. Qahramonlarning bir-biriga o'z-o'ziga qiyoslab chizilgan ajoyib portret namunalarini yaratdi. Ularning tashqi qiyofasi bilan ichki dunyosini uyg'un tasvirlash birga tashqi ko'rinish-zohiriy olam hamma vaqt ham insonning ma'naviy olamiga mos kelavermasligini isbotlovchi xarakterli qiyofalarni kitobxon ko'z o'ngida gavdalantira oldi.

Xarakterlarning tasvirida yozuvchi faqat ijtimoiy masalalarning o'zi bilan cheklanib qola olmaydi. Zotan, hayotda shunday biror masala yo'qki, u o'zining biror tomoni bilan ijtimoiy hayotga bog'liq bo'lmasin. Hayotni yaxshi bilgan mohir yozuvchi yuzaki qaraganda ijtimoiy masalalardan uzoqda turgan voqealardan ham muhim ijtimoiy ma'no chiqara oladi.

Qahramonlarning intim hayoti xuddi shunday. Yuzaki qaraganda u ijtimoiy muammolardan uzoqda, ammo mohiyat e'tibori bilan qaraganda davrning ijtimoiy, siyosiy va falsafiy hayoti bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'ramiz. "O'tkan kunlar" romanidagi Otabek fojeasi asosan muhabbatdan kelib chiqadigan fojeadir. Agar romanda o'sha muhabbat chizig'i bo'lmasa edi, o'sha davr hayotining ijtimoiy va falsafiy tomonlari bu darajada yorqin tasvirlanmagan bo'lardi. Yoki "Qutlug' qon" romanidagi Yo'lchi obrazi taqdiriga bir nazar tashlaylik: agar romanda Yo'lchi va Gulnor muhabbati chizig'i bo'lmasa edi, qahramon ongidagi o'z-o'zini anglash jarayoni bu darajada tezlashmas va shu darajada aniq tasvir qilinmagan bo'lardi.

Shuhrat ham "Oltin zanglamas" romanini yozishda masalaning bu tomonini yaxshi anglagan holda ish ko'rdi. Biroq "Oltin zanglamas"dagi muhabbat mojarosi na "O'tkan kun"lardagi, na "Qutlug' qon"dagi va na "Mehrobdan chayon"dagi muhabbat chiziqlariga o'xshaydi. Otabek, Anvar, Yo'lchi xarakterlari yozuvchi simpatiyasi bilan bitilgan hayot qahramonlari xarakteridir. Shu sababdan ularning muhabbati sof insoniy. Shu sababdan ularning muhabbati ulug', hayotbaxsh. "Oltin

zanglmas”dagi Sodiqjon va Jannat o’rtasidagi muhabbat to’g’risida biz bunday deya olmaymiz. Unda tasvirlangan farzandsizlik konflikti bunday muhabbat uchun to’siq bo’lib xizmat qiladi.

Shuhrat asarlaridagi syujet o’zaklarining o’zaro yaqinlikdan kelib chiqib, yozuvchi faqat bir xil qahramonlar taqdirini tasvirlaydi va bir xil mazmundagi voqealarni qalamga oladi, degan fikrni uyg’otmasligi kerak. Zero, uning asarlarida tasvirlangan qahramonlar bir mavzu atrofida harakat qilsalar-da, ularning jamiyatga, tevarak-atrofdagi odamlarga bo’lgan munosabatlarida, o’y-kechinmalarida, ma’naviy dunyosida bir-birini takrorlamaslik darajasidagi rang-baranglik mavjuddir. Bu yozuvchining badiiy ijodda poetik so’zni his qilish darajasi nihoyatda teranligini ko’rsatadi. Qahramon ma’naviy dunyosining shakllanishida uning ijtimoiy hayotdagi mavqei va odamlarning o’zaro munosabati muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Bunday hayotiy lavhalar tasviri asarlarida badiiy haqiqat darajasiga ko’tarilgan. Yozuvchi ana shu badiiy haqiqatni qahramonlarning bir- biriga bo’lgan munosabati, ruhiy kechinmalari, do’stlikni tushunish va his eta olish iqtidorini tasvirlash orqali ochib beradi.

Shuhrat asarlari qahramonlari ma’naviy olamining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular xarakteridagi o’zbekona jihatlar umuminsoniy qadriyatlar dengizida g’arq bo’lib ketmaydi. Qahramonlar ma’naviy olamiga alohida ma’no va joziba bag’ishlagan shu jihatlar bugungi kunimiz, davrimiz hodisalari bilan, ya’ni zamondoshlarimizning turmush tarzi, quvonch-u tashvishlari, qolaversa, shakllanayotgan yangi hayot mezonlari bilan bevosita bog’liqdir.

San’at o’zining eng muqaddas narsasiga-badiiy obrazlar orqali aks ettirishi lozim bo’lgan «oliy haqiqati»ga erishmog’i uchun ijodkorlik faoliyati uchinchi eng yetuk bosqichga ko’tarila olishi kerak. Uchinchi bosqichda asosiy hukmronlik uslubga o’tadi. Manera esa o’z yo’nalishida unga bo’ysunadi va faqat u talab etgan me’yor doirasidagina yuzaga chiqa oladi. Yozuvchi bu ishga qanchalik sofdillik, samimiylilik, insof va qunt bilan yondosha olsa, ko’rgan va

eshitgan narsalarini bosiqlik bilan o'zlashtira olsa, tasavvurida shoshmasdan gavdalandirsa, bunda o'ylab ko'rishni, ayrim predmetlarni umumiy tushunchalarga bo'ysundirishni, binobarin ko'proq chog'ishtirish, taqqoslash, o'xshashliklarni nomutanosibliklardan ajratib olishni ham durust odat qilgan bo'lsa, intilishlarida san'atning eng muqaddas narsasiga shunchalik yaqin kelaveradi.

«Uslub, - deb yozadi I.V. Gyote, - idrokning eng tub qatlamlarida, narsalarga xos mavjudlikning o'zida qaror topadi»¹². «Hamma buyuk talantlar singari, - deb yozadi V.G.Belinskiy, - janob Lermontov «slog» deb ataladigan narsani oliy darajada egallagan... slog-bu aslo grammatik jihatdan to'g'ri, salmoq va tartib bilan yozish emas. Slog deganda biz...yozuvchining shakl bilan mazmunga quyma bir holat bag'ishlay olish qobiliyatini va shu bilan birga hamma-hamma narsaga o'z shaxsi, o'z ruhining takrorlanmas, original muhrini tushirib o'ta olish xususiyatini, ya'ni unga tabiat tomonidan in'om etilgan xususiyatni nazarda tutamiz»¹³.

Milliylik va umuminsoniylik badiiy adabiyotning muhim talablaridan hisoblanadi. Jahon adabiyotining eng nodir asarlari ana shu ikki hodisani umumlashtirish, mushtarak holatda tasvirlay olish xususiyati bilan qadr topgandir. Zotan, adabiy asarda milliylik umuminsoniylik bilan uzviy aloqada, birlikda namoyon bo'lgandagina katta badiiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon jahon adabiyotida yaratilgan milliy xarakterlarni umuminsoniy qadriyatlar sohibi sifatida tasvirlash etakchi tamoyillarga aylangan. Tabiat va inson tasviri badiiy adabiyotda milliy, ayni paytda, umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan hodisadir. Tabiat muhofazasi mavzusida yaratilgan badiiy asarlardagi qahramonlar qaysi millatga mansub bo'lmasin, ularning ichki kechinmalari va orzu-intilishlarida umuminsoniy tuyg'ular o'z ifodasini topishi zarur. Shu

¹² Гёте И.В. Соч. Т.Х. М., 1937. С.401.

¹³ Белинский В.Г. ПСС. В. 13-ти. Т. Т. 5. М., 1953. С.424.

jihatdan qaraganda, Sodiqjon («Oltin zanglamas»), Elmurod, Zebo («Shinelli yillar») va boshqa qahramonlar o'zlarining milliy, ayni paytda umuminsoniy qiyofalariga ega.

Ma'lumki, ijodkor asarda o'z oldiga muayyan badiiy niyatni yoritishni maqsad qilib qo'yadi. Badiiy niyat qanchalik ulug'vor va ezgu bo'lsa, uning ijrosi ham shunchalik yuksak bo'lishi lozim. Shuningdek, badiiy shakl adabiy asarning muhim sharti bo'lib, obrazlar tizimi, kompozitsiya va boshqa badiiy nutq kabi komponentlarning ishlanishiga bog'liq. Shu ma'noda asarning janri, xarakterlar tasviri, konflikt va peyzaj kabi vositalar ham asar shaklining mukammal bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Demak, niyat tug'ilishidan boshlab asar tugaguncha bo'lgan jarayon badiiy shaklning shakllanish jarayonidir. Ishda Shuhrat ijodiy laboratoriyasini kuzatish natijasida yozuvchi uslubining shakllanish jarayoni atroflicha tahlil qilingan.

Shuhrat o'ziga xos badiiy uslub sohibi sifatida taqlidchilik, biryoqlamalilik va bayonchilikdan qochadi. So'zga xasis bo'lsa-da, fikrini o'quvchiga to'la va yorqin yetkazishga erishadi. Ba'zan uning ayrim asarlari tugallanmagandek, fikrlar nihoyalanmagandek taassurot uyg'otadi. Adib odatda qahramonlar portretini favqulodda quyuq chizib, barcha diqqat e'tiborni xarakter yaratishga qaratadi. Bu holatni adibning barcha asarlarida uchratish mumkin.

Shuhrat asarlari o'ziga xos ifoda usullari, tasvir ohangi, ritmikasi bilan ham e'tiborlidir. Yozuvchi fikrini qisqa va lo'nda tasvirlashga odatlangan. Qahramon ruhiyati tasvirining tipologik tahlili. Shuhratning II jahon urushida ishtirok etib, vayron bo'lgan shahar va qishloqlarni, mag'lubiyat va g'alabani o'z ko'zi bilan ko'rishi uning yirik nasrga o'tib, «Shinelli yillar» (1958) romanini yozishga turtki bergan. Shuhrat «Oltin zanglamas» (1965) romanida mustabid sovet tuzumi davrida inson haq-huquqlarining toptalishini o'zi guvohi bo'lgan

voqealarni umumlashtirgan holda tasvirlagan, e'tiqod, vatanparvarlik, vijdon amrini har bir kishining jamiyatdagi mavqei va insoniy qadr-qimmatini belgilovchi muhim ma'naviy qadriyatlar sifatida talqin etgan. Shuhratning "Jannat qidirganlar" (1968) romani "Oltin zanglamas"ning mantiqiy davomidir. Shuhrat bu asarida haqiqat (jannat) axtarib yashovchi kishilarning ikki xil ko'rinishini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Yozuvchi umrining so'nggi yillarida isyonkor shoir Mashrab haqidagi tarixiy roman ustida ishlagan, biroq asar tugallanmay qolgan.

"Shinelli yillar" Shuhratning katta prozadagi ilk izlanishlari, ayni zamonda o'zbek harbiy prozasining ilk namunalaridan biridir. Asarning biografik material asosiga qurilgani, muallifning o'zi shohid bo'lgan voqea va holatlar, o'zi ko'rgan va tanigan, yelkama yelka turib jang qilgan kishilarni qalamga olishi obrazlarning jonliligini ta'min etgan.

Shuhrat asarlari samimiyligi, ishontirish qudrati bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot haqiqatining o'zi, hayotning bir bo'lagi bo'lib gavdalanadi, yozuvchi ularni hayotning o'zidan shundoqqina ko'chirib olgandek tuyuladi. Ammo bu osonlikcha qo'lga kiritilgan emas, asarlarda aks etgan hayot bu real hayotning shunchaki nusxasi emas. Endi asar qahramonlariga kelsak.

"Shinelli yilllar" romani bosh qahramoni - Elmurod. Romandagi voqealar ham aynan uning Muxarram ismli qizga bo'lgan sevgisini eslashdan boshlanadi. Ammo bu sevgi deb faraz qilingan tuyg'u o'tkinchi bir hissiyot edi.

Elmurod – mard, jasur, haqiqiy er yigit. Yozuvchi bu qahramonning xarakterini tasvirlashda uning o'y – kechinmalariga alohida e'tibor beradi. Poxodlarda qanchalik og'ir bo'lmasin, faqat olg'a yurish kerakligi, "yetolmay, yiqilib qolsam-a? Nomus! Nomus er kishini o'ldiradi-ya!.. Har burchakdan pichir-pichir gap bo'ladi: "U poxodda orqada qolibdi!" Unda nima bo'ladi? So'z suyakdan, tayoq etdan o'tadi. Yo'q bunday bo'lishi mumkin emas. Yonimdagi

kichkina jangchicha ham yo'qmanmi?!" singari fikrlarning o'zi so'zimizning nechog'li haqiqat ekanligidan dalolat beradi.

Zebo – Elmurodning haqiqiy sevgilisi. Mard va jasurlikda Elmuroddan qolishmaydigan, xavf – xatardan hayiqmaydigan vafodor yor.

Shuhrat hayot hodisalari ustida olib borgan ishlar bevosita xarakter yaratish bilan bog'liq. Asar uchun fakt tanlayotganda ham, faktni "tahrir" etayotganda ham, uni xayolan o'ylab chiqarayotganda ham, uning markazida hamisha odam obrazi turadi. Muallif hayotiy hodisalarni asarga olib kirishda bir tomondan, ularning hayotiylikini, mantiq kuchini oshirish payida bo'lsa, ikkinchi tomondan, ularning xarakter mohiyatini ochishga, xarakter psixologiyasini tahlil etishga qulay bo'lishini o'ylaydi; muallif qaytadan va yangidan yaratgan holatlar nihoyatda hayotiy bo'lish bilan barobar xarakter jamolini ko'rsatish uchun behad qulay.

Yozuvchining ijod laboratoriyasini kuzatish shundan dalolat beradiki, muallif hayot hodisalarini badiiy haqiqatga aylantirishda, xarakter yaratishda ruhiy jarayon tasviriga, ayniqsa, katta e'tibor beradi, zotan, yozuvchining san'atkorligi ham, yozuvchi ijodiy fantaziyasining mo'jizalari ham hammadan ko'proq shu vaziyatda namoyon bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushi "Shinelli yillar"ga turtki bo'lgan, roman asosida yotgan hodisa - real fakt, ammo asardagi xarakterlarning psixik holatlari yozuvchi fantaziyasining samarasi.

Yozuvchi psixik analiz vaqtida inson qalbining chuqur joylariga kirib bora biladi, inson qalbining qa'ridagi har kimga ham ko'rish muyassar bo'lavermaydigan pinhoniylar jarayonlarni aniq ko'ra oladi. Uning asarlari bamisoli inson ruhiy olamiga "ochilgan darcha", bu darchadan inson qalbining jilolari butun nozik qirralari bilan baralla ko'rinib turadi. Shuhrat asarlari inson qalbidagi nozik tuyg'ular jilvasining ifoda usul jihatdan lirik asarga o'xshab ketadi. Lirik asar mazmunini oddiy inson tiliga tarjima qilish mumkin bo'lmagani kabi yozuvchi

romanlarining mazmunini ham qayta hikoyalash yo'li bilan birovga yetkazish mushkul.

Shuhrat asarlari xatti-harakatlar, to'qnashuvlar va ziddiyatlar jarayonini – hodisalar dramtizmini ko'rsatish usuli jihatdan ma'lum darajada dramatik asarga o'xshab ketadi. Adib hadeb voqealarga aralashavermaydi, xuddi dramadagi kabi voqea va xarakterlarni xolis turib tasvir etadi, hikoyalardagi voqealar, qahramonlarning hatti – harakati shundoq kitobxon ko'zi oldida gavdalanib turadi, xarakterlar to'qnashuvi tez va keskin rivojlanib boradi, dialoglar mo'l va shiddatkor bo'ladi, butun boshli asar bir yoki bir necha dramatik kartinalardan tashkil topadi. Asardagi badiiy tasvir vositalar, jumladan, portret va peyzaj ham harakatda beriladi, ular voqea rivojida, xarakterlar psixikasini ochishda , asar g'oyasini ifoda etishda ma'lum funksiyani ado etadilar. Ma'lumki, A. P. Chexov hikoyachilikda xuddi shunday yo'l tutar edi, dramatik asarga xos xususiyatlar hikoyaga ham xos ekanligini qayta – qayta ta'kidlar edi.¹⁴

Shu o'rinda yozuvchining dramatik mahorati juda yaxshi namoyon bo'lgan “Aldanish” hikoyasini keltiramiz. Dramatik elementlarning mo'lligi, syujet dinamikasining keskinligi kartinalarning aniqligi, xarakterlarning lo'ndaligi jihatidan “Aldanish” hikoyasi muallifning hikoyanavislik faoliyatida olg'a qo'yilgan qadam.

Hikoya qahramon tilidan bayon qilinadi. Unda muallif o'z manfaati uchun tuyg'ular bilan bemalol o'ynay oladigan ayollarning qiyofasini tasvirlashga harakat qilgan. Bosh qahramon – Nosirjon. Yoshi anchaga borib qolganiga qaramay hali bo'ydoq. Voqealar Nosirjonning uylanish harakati atrofida kechadi.

Hikoya xuddi dramatik asar singari aniq kartinalardan iborat, kartinalar esa yorqin lavhachalardan tashkil topgan. Lavhachalar bir- birlari bilan tez- tez almashinib turadi, voqea bir kartinadan ikkinchi kartinaga, bir lavhadan ikkinchi lavhaga tomon shiddat bilan rivojlanib boradi.

¹⁴ В. В. Голубков, Мастерство А. П. Чехова, Учпедгиз, 1958, ст. 16

Hikoya Nosirjonning vaqtida uylana olmaganligi sababining bayoni bilan boshlanadi. Muallif bu bayon bilan parallel ravishda qahramon xarakterini ham tasvirlaydi. Keyin esa Nosirjon uylanmoqchi bo'lgan qiz - Nazokatxon bilan tanishuv sahnasi tasvirlanadi. Nazokatxon- do'konda sotuvchi, ro'zg'or tebratish uning zimmasida, bitta ukasi bor. Bunga sabab sifatida Nosirjonning bolalikdagi do'sti, aniqrog'i, o'rtog'I - Qosim obrazi gavdalandiriladi. Muallif tanishuv chog'idagi suhbatda ham Nazokatxon xarakteriga ishora beradi. Ko'ngildagidek uchrashuvlardan keyin, muallif gapni asosiy masalaga olib kelib taqaydi. Mana endi xarakterlar orasidagi bevosita to'qnashuv boshlanadi. Bu to'qnashuvlar tasvirida ham muallif vaziyat va holatni birin – ketin kuchaytirish, tobora keskinlashtirish, bir lavhachadan ikkinchisiga tezkorlik bilan o'tish yo'lini tutadi:

“Tashqariga chiqqach, u meni murti shaftoli tuklaridek endi sabza urgan bir o'smir bilan tanishtirdi:

- Ukam. Bu bechoraning yaqinda yetuklik attestatiga imtihoni boshlanadi. Biroz dam olsin, deb ola keldim. Innaykeyin siz bilan tanishib qo'ysin – o'qimishli kishilarni yaxshi ko'radi.

Kun chindan ham yaxshi edi. Bahor ko'kragi to'lib nafas olardi. Kurtaklar labida erka tabassum. Ariq bo'ylarida barra o't.

-Bu kishi,- dedi Nazokatxon menga ishora qilib, ukasiga – sen yaxshi ko'rgan institutda aspirant, o'qituvchi. Ehtimol seni ham o'qitarlar. Unda ishing besh bo'ladi. Shundaymasmi?

So'nggi savol menga qaratilgan edi. Hazilga oldim.

- Yaxshi o'qisa albatta besh bo'ladi.

- Undan sal pastroq o'qisa “besh” qilolmaysizmi, men uchun-a?- kulib, o'ziga yarashgan nazokat bilan dedi Nazokatxon.”¹⁵

¹⁵ Шухрат Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Тошкент, АСН. 1980, 425-бет.

Muallif bu yerda ham voqealar dinamikasiga jindek pauza berib oladi. Yigit Nazokatdan bunday gapni sira kutmagan edi. Shuning uchun hazilga oladi. Ammo bu hali boshlanishi edi:

“Uch kun o’tgach univermag kirsam Nazokatxon oldida bejirimgina bir xotin turibdi. Ikkisi nimanidir pichirlashardi. Nazokatxon meni ko’rsa ham so’zini bo’lmadi, bosh iring’ab qo’ya qoldi. Oxiri xotinning qo’liga xayrlashgan kishidek bo’lib yashirincha bir nima qistirdi. Bir chetini ko’rib qoldim: chek. Bejirim xotin uzoqlashgach, Nazokatxon izoh berdi:

-Ukam o’qiydigan maktab direktorining xotini. Bir narsa iltimos qiluvdi, bugun mavridi kelib qoldi. Oila boshlig’i bo’lganingda keyin qiyin: ukam bechora qiynalmasin, bitirib olsin deyman.- Mayuslangansimon so’zladi u, keyin kulibgina qo’shib qo’ydi: - Shunaqa, Nosirjon aka, burga tutish uchun ham barmoqni ho’llash kerak!”

Dastlabki lavha ana shunday xotimalanadi. Bu lavhada xarakterlar orasidagi to’qnashuvlar go’yo oxiriga yetgandek bo’lib tuyuladi: olishuv Nazokatxon foydasiga hal bo’ladi. Shunday qilib, muallif dastlabki lavhani ma’lum bir mantiqiy butunlikni ta’min etgan holda yakunlaydi va, shu bilan birga, galdagi lavhaga zamin hozirlab oladi.

Navbatdagi lavhada yozuvchi dramatizmni hosil etishda boshqacharoq yo’ldan boradi. Endi ijobiy qahramon salbiy qahramon bilan bevosita to’qnashmaydi, balki salbiy kuch tomonidan uyushtirilgan g’ovlar bilan bevosita olishuvga kirishadi:

“-Hay, mana bulardan bir kiyimlik-bir kiyimlik olib qo’ysangizchi, kennoyimga. Keragida izlab topolmaysiz.

-Vaqtida, kiyadiganning o’zi bilan tanlarmiz. Osh ham egasi bilan shirin. Yo’q bo’lib ketsa, siz bor-ku!

Keyingi jumlani uchuriq qilib aytdim. Nazokatxonning bugungi xatti-harakati ko’zga tushgan oqdek menga g’alati ko’rinib ketdi. Tezroq chiqib ketgim

kelib qoldi. Lekin nimadir ushlab turardi. Nazokatning ko'ziga qaradim: o'sha-o'sha Nazokatxon! Balog'atga yetgan qizlarga xos husn bilan porlab turibdi, boyagi gapni aytgan u emas. Ichki bir tovush menga "qayoqqa borasan shunday qizni tashlab. Kimda nuqson yo'q" deb hayqiradi. Oyog'imdan darmonim quridi. Ana shunda uning muhabbati yuragimga qo'rg'oshin bo'lib quyilib ketganini butun vujudim bilan his etdim. Uning nuqson bo'lib ko'ringan xislatlari ham dabdaba bilan ko'kdan tushib, bir necha daqiqada erib erib ketgan do'l donalariga o'xshardi. Menga uning nuqsoni hech gapmasdek tuyuldi, o'zimni sovutdim; tarbiyalab olarman, tarbiya taqani to'g'rilaydi!"

Ammo hammasi qahramonimiz o'ylagandek bo'lib chiqmaydi. Hikoya yakuniga kelib yozuvchi Nazokatning pinhon rejasini oshkor qiladi:

"...bu quvonchining siri bir haftadan keyin bilindi: ukasi shu institutga ariza bergan ekan! Bu orada Nazokatxonning shirinso'z, mehribon bo'lib ketganini asti qo'yaverasiz. Soyamga salom berardi. Mehribonlik muhabbat elchisi, degandek, men soddaning mehrim borgan sari oshib borardi. Hatto bir kuni u menga bir ukraincha ko'ylak sovg'a qildi: bu yangi nusxa emish. Yana bir uchrashuvimizda ukasining institutga kirishiga ko'mak berishimni so'radi. ..."

Tashqi ko'rinishning aldamchiligi, ko'zlarning har doim ham rost so'zlayvermasligi ushbu hikoyada batafsil bayon qilingan. Bunday salbiy xulqqa qarshi yozuvchi, albatta, to'g'riso'z va fidoyi obraz yarata olgan. Hikoya so'ngida yozuvchi Nazokatning iltimosi rad etilishi bilan bog'liq lavhani bayon qilgan. Bunda uning fe'lidagi illatlar bor bo'yicha o'z ifodasini topgan:

"- Bu ish yaxshi emas-ku, Nazokatxon. Bu qo'limdan kelmaydi.

Shu gapni zo'r bilan aytdim-u, ko'z oldimdan uning ukasi o'qigan maktab direktori xotinining chekli qo'li o'tdi. Nazokatxon birdan men tanimas holda o'zgarib ketdi, burun kataklari kengayib, oqardi, qoshlari chimirildi, lablari cho'chchaydi.

-Nokas tarog'lik bo'ldi, tarog'i kerakli bo'ldi!- deb bir o'shqirdi-da, shartta burilib orqasiga qaramay yurib katdi. Men o'z o'ljasi qo'lidan uchgan ovchiday ortidan termilib qoldim. O'z ko'zlarimga ishonmasdim. Ertasiga ko'chada ko'rdim, teskari qarab o'tdi. Uch kundan keyin bir bola kelib, u sovg'a qilgan "yangi nusxa" ukraincha ko'ylakning pulini so'radi..."

Hikoya epik turga mansub. Hikoya janrining bu xususiyati adabiyotshunoslikda yaxshi o'rganilgan emas. Bu masalada ko'pgina chalkashliklar bor. Ba'zi adabiyotshunoslar hikoya janrining epiklik xususiyatini nazar-pisand qilmaydilar, hikoyaning shaxs taqdiri va shu orqali sharoitni ko'rsatishdagi imkoniyatlarini mumkin qadar toraytirib, cheklab ko'rsatadilar. Ularning fikricha "hikoya birgina voqea asosiga quriladi", "hikoyada inson xarakteri birgina voqea, birgina epizod orqali tasvir etiladi", "shunga muvofiq xarakterlar tayyor holda beriladi", hikoyada tayyor xarakterning bir holatigina ko'rsatiladi", "xarakterning hikoyaga kirguncha bo'lgan taraqqiyoti yoki undan keying holati tasvirlanmaydi"...¹⁶

To'g'ri, bunday mulohazalarda ozmi-ko'pmi haqiqat bor, lekin ular hikoya janrining umumiy xususiyatlari emas, balki bu janrning ayrim xususiyatlarini o'z ichiga oladi, xolos. Bu fikr Shuhrat ijodiga tadbiiq etiladigan bo'lsa, haqiqatan ham uning ba'zi hikoyalari, chunonchi "Quduq", "Oqqushning kenja bolasi" hikoyalari birgina voqea asosiga qurilgan, ularda xarakter tayyor holda berilgan, tayyor xarakterning qiyofasi birgina epizod asosida ochilgan. Ularda biz xarakterlar jamolini ko'ramiz, ammo ularning taqdiridan bexabar qolamiz. Bu tur hikoyalar Shuhrat ijodida barmoq bilan sanarli darajada oz. Yozuvchini xarakterlarning bir lahzalik holati emas, ko'proq uzoq davrlik hayoti, bosib o'tgan yo'li taqiri qiziqtiradi. Adibning hajmi e'tibori bilan nihoyatda kichik hikoyalarida ham qahramonlarning hozirgi kuni va o'tmishi bilan, qahramon biografiyasidagi asosiy lahzalar bilan tanishaverish mumkin.

¹⁶Тимофеев Л. И. Адабиет назарияси асослари. М., 1963. (331-332-б.)

Xuddi shuningdek, hikoyada xarakter tayyor holda beriladi, u hikoyaga tayyor va shakllangan holda kiradi va shundayicha chiqib ketadi degan fikr ham asossiz. Bu fikr ham hikoyaning bir turiga tegishli, xolos. Shuhratning ko'pchilik hikoyalarida tayyor xarakterning muayyan holat emas, ko'proq ularning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, xarakterlar rivoji, evolutsiyasi ko'rsatiladi. Yozuvchi talaygina hikoyalarida xarakterlar taqdiridagi burilish holatlarini tasvir uchun obyekt qilib oladi.

Qisqasi, Shuhrat hikoyalarida biz xarakter jamolinigina emas, uning taqdirini ham ko'ramiz, bu hol uning hikoyalariga epik tus beradi.

Shuhratning epik tasvir mahoratiga oid yana bir fazilani ta'kidlab o'tish kerak: yozuvchi hikoyalarida shaxs taqdiri muhit, sharoit bilan, omma hayoti bilan mustahkam bog'liq holda beriladi, shaxs taqdirining shakllanishi va yo'nalishini belgilashda bu omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuhrat qalami ostidan chiqqan qator hikoyalarda hayotning epik lavhasi mohirlik bilan tasvir etilgan, qahramonlarning yorqin xakteri chizilgan, xarakterlar taqdiri mumkin qadar to'la berilgan ekan, bunga asoslanib muallif hikoya janri imkoniyatlaridan unumli va samarali foydalangan deyishimiz mumkin.

Endi aniq misolga yuzlansak. "Baxrinisa" hikoyasi asosida bardosh va burchga sadoqat g'oyasi yotadi. Hikoya qahramoni Sadirjon farzand ko'rish niyatida ikkinchi marta uylangandi. Birinchi turmushidan voz kechikishiga aynan farzandsizlik sabab edi. Qahramonning bolaga bo'lgan mehrini yozuvchi: "Sadirning aytishicha, uning o'tgan umrida eng quvonchli kuni bitta. U ham bo'lsa mana shu ikkinchi xotini Mehrining homilador bo'lganini payqagan kuni! Agar xotini omon-eson bo'shashib olsa, ikkinchi baxtli va zo'r quvonchli kuni shu bo'ladi..."¹⁷ tarzida tasvirlaydi. Ha, payqaganingiz yozuvchi o'zbek xalqining bolajonligini go'zal tasvirlagan.

¹⁷ Шўҳрат Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Тошкент, АСН. 1980, 435-бет

Uzoq kutilgan farzandning otasi sifatida Sadir xotinini yer-u ko'kka ishonmasdi. Uning ra'yini qaytarolmasdi. Oy kunin yaqinlashgan Mehri zerikib ketib, ko'ngli dalani tusab qoladi. Shunda ular yo'l uzoq bo'lishiga qaramay qarindoshlarinikiga qulupnayxo'rlikka chiqishadi. O'sha yerda Mehrini dard tutib qoladi. Sadir uni qarindosh xotinning taklifi bilan rayon tug'ruqxonasiga olib boradi. Ammo u yerda Sadirni tashvishga qo'yadigan manzaraning guvohi bo'lamiz. Doya uning birinchi xotini - Baxrinisa bo'lib chiqadi.

Sadir Baxrinishani sevmasmidi? Sevardi. Ammo bu sevgi daraxtiga farzand kulgisiday ajoyib ozuqa berilmasa u qurib qoladi. Sadir va Baxrinisa hayotida ham shunday bo'ldi. Baxrinisa har qancha mehribon, shirinso'z bo'lmasin, farzandsizlik aybi uning gardanidaligini bilgan Sadirning ko'nglida xotiniga nisbatan salbiy fikrlar paydo bo'la boshlaydi.

Shu o'rinda yozuvchining qahramon xarakteri tasviriga e'tibor qaratsak. Hikoya boshida muallif uni bolajon, bir qadar nuqsonlardan holi tasvirlaydi. Ammo quyidagi so'zlari orqali uning kamchiliklardan holi emasligining guvohi bo'lamiz:

“-Bu nima? –dedi. Hech narsadan xabari yo'q bechora Baxrinisa oq ko'ngillik bilan javob berdi:

-Qo'noq o't.

-Bug'doyga o'xshaydi to'g'rimasmi? Boshog'i xuddi bug'doynikining o'zi. Sodda shahar odami buni bug'doy deyishi ham mumkin, shundaymasmi?

-To'g'ri.

-Boshog'i-ku bor, bug'doyga ham o'xshaydi, lekin ichida doni yo'q, quruq savlat. Sen ham xuddi shunga o'xshaysan: donsiz bug'doy nusxa boshhoqsan.

Bu so'z Baxrinishaning u yoq –bu yog'idan o'tib ketdi. Shu kungacha bo'lgan achchiq –chuchuk so'zlar ham bir bo'ldi-yu, bugungi bu o'xshatish ham bir bo'ldi. U bardosh berolmadi, ko'ziga jiq to'lgan yoshni arang tutib:

-Shu niyatingiz bor ekan, ochiq ayta qolmaysizmi, muncha xo'rlamasangiz kishini!!!- dedi-yu, unga qaramay yugurib ketdi. Uning piqillab yig'lab borayotgani eshitilib turardi. Shu ketganicha u Sadirnikiga qaytib bormadi, bir oycha o'tgach, ajralishdi.”

Yuqorida hikoyaning burchga saoqat to'g'risidaligini aytib o'tgan edik. Sadirjon shuncha achchiq gapdan keyin birinchi xotini uning bolasini ataylab nobud qilishi haqida o'ylardi. Ammo unday bo'lmadi. Baxrinisa qizaloq bilan birga uning onasini ham saqlab qoladi va, hatto, Mehriga o'z qonidan quyadi. Hikoya yakunida Sadir qizining ismini doktor sharafiga Baxrinisa deb qo'ygani, ilk rafiqasi esa ikkita shirindan shakar bolakaylarni asrab olgani bayon qilinadi.

Shuhrat xarakterlar tasvirida xolis turishga harakat qiladi, ammo qahramonlar xatti-harakatiga, taqdiriga hech qachon befarq bo'lmaydi. Qahramonlari harakatlarini chuqur tahlil etadi va ular ustidan odilona hukm chiqaradi.

II bob. “Oltin zanglamas” romanida xarakterlar tizimi

2.1 Romandagi yetakchi obrazlarda insoniylik va milliylik xususiyatlari

“Shuhrat aka mukammal inson edi. Avvalo u yetuk shoir, zabardast yozuvchi mohir tarjimon va zukko muharrir noshir edi. Tabiat ham u kishini bekam-u ko’st qilib yaratgan edi-da. Adl qomati, o’ziga xo’b yarashgan kumushdek oppoq sochi, yuzidagi muloyim tabassum, hamma bilan birdek ochilib – sochilib muomala qilishi... Shuhrat aka gapirganda birov u kishining so’zini bo’lmasdi. Chunki ustozning gapi shu qadar samimiy, jo’yali, serjilo, eng muhimi, yurakka jiz etib tegadigan bo’lardi”¹⁸ -deya Sa’dulla Siyoyev ustoz-Shuhrat (G’ulom Alimov)ni eslaydi. Darhaqiqat, Shuhratning bizga qoldirgan har bir merosida buning isbotini ko’ramiz. “Hayot nafasi”(sheri to’plam), “ Besh kunlik kuyov”(drama), “Shinelli yillar” , “Oltin zanglamas”, “Jannat qidirganlar” (roman) kabi asarlar shular jumlasidan.

Har bir asar yozuvchi uchun aziz, qadrli. Shunday bo’lsa-da, ular ichida dilga eng yaqini bo’ladi. Shuhratning e’tiroficha, “Oltin zanglamas”romani-hayotining eng asosiy kitobi edi. To’g’ri, adib mazkur asaridan keyin bir qancha kitoblar e’lon qildi. Ikki qayta saylanmalarini chop ettirdi. Ammo “Oltin zanglamas” romanining ilk sahifalaridan to so’nggi varaqlarigacha ufurib turadigan qaynoq mehr, qalb qo’ri, quvonchli damlar bilan esh hazinlik, dard, insoniylik, ayni paytda shafqatsiz haqqoniyat, asarda qayd etilganidek, u ikki yillik muddatda emas, balki ikki yil-u yana butun umr davomida yozilganidan dalolat beradi.

Sa’dulla Siyoyev esa bu haqda: “Oltin zanglamas”ni talabalik paytimdan beri necha bor qo’lga olgan bo’lsam, to itmomiga yetmaguncha sabr

¹⁸ “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2008-yil 3-soni.

qilolmaganman. Bu safar ham shunday bo'ldi. So'nggi sahifani yopib, o'ylanib qoldim. Shuhrat aka Sodiq muallim misolida o'zining boshidan o'tganlarini yozgandek edi go'yo".

Darhaqiqat, unining asarlaridagi real tasvirlarni mutolaa qilish jarayonida xuddi shunday fikrga boradi kishi. Bu, albatta, ijodkor uslubiy mahoratining mahsulidir. Endi esa uslub to'g'risida to'xtalib o'tsak.

«Adabiyotshunoslik va ayniqsa tanqidchilikda ba'zan uslub deya turib turli xil badiiy tasvir usullari hamda adabiy priyomlar haqida fikr yuritilgan holatlarga duch kelib qolinadi» - deb yozgan edi I.Sulton «Adabiyot nazariyasi» darsligida¹⁹. Taniqli adabiyotshunosolim yozuvchi uslubi va badiiy tasvir usullari istilohlarini alohida ob'ekt sifatida, birini-ikkinchisidan ajratib izohlashga harakat qiladi. Bu nuqtai nazar bizningcha muammolidir. Aslida uslubni o'rganmoqchi bo'lgan olimlar yozuvchi asarlaridagi badiiy tasvir usullarini tadqiq etadi. Adabiy priyomlar va badiiy tasvir usullari individualligi keng ma'noda uslubni yuzaga keltiruvchi elementlardir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Shuhratning «Oltin zanglamas » romanidagi ruhiyat tasvirining asosiy o'zagi diyonat (adolat) bilan jaholat o'rtasidagi shafqatsiz, murosasiz kurashni aks ettirishdan iboratligi ayon bo'ladi. Bu kurash qutblari esa ruhan bir-biriga zid xarakterlar, ular o'rtasidagi keskin ziddiyatlarga boy to'qnashuvlar va ruhiy kechinmalardan iborat.

Asar xususida Matyoqub Qo'shjonov shunday yozadi: "Voqealarni dramatik tobda olib borish, xarakterlar tasviri uchun voqealarning keskin burilishlaridan foydalana bilish –umuman, asarni keskin ziddiyatli qilib yaratish jihatidan "Oltin

¹⁹ Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent, Fan. 1980.

zanglamas”da Shuhrat tutgan yo’l Abdulla Qodiriy uslubini eslatadi. Shu ma’noda Shuhrat, albatta, ustoz Abdulla Qodiriydan saboq olgani ma’lum bo’ladi”.

Shuhratning yozuvchi sifatida pozitsiyasi juda aniq. Uning asarlari xuddi sud zaliga o’xshaydi. Adib bamisoli odil sudya kabi qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil etadi, o’z xalqi, hokimiyati nomidan ular ustidan hukm chiqaradi, ularning qilmishiga yarasha yo jazolaydi, yo mukofotlaydi. Qahramonlar ustidan hukm chiqargan yozuvchi hech qachon o’z xohishicha ish tutmaydi, qahramonlar taqdirini zamon, sharoit bilan bog’liq holda hal etadi, qahramonlarni sharoitga ro’para qiladi, qahramonlar hamisha sharoit taqozosi, xarakter mantig’i asosidagina harakat qiladilar. Shuning uchun ham kitobxon nazarida yozuvchi go’yo hodisalarga befarq qarayotgandek, odil hukmni sharoitning o’zi chiqarayotgandek, qahramonlar jazoga ham mukofotga ham vaziyat, sharoit taqozosi tufayligina sazovor bo’layotgandek tuyuladi. Aslida bu ishlarda yozuvchining ham “qo’li” bor.

“Shuhratning “Oltin zanglamas” romani shunday maydonga kelganki,-deb yozadi Matyoqub Qo’shjonov,- bu asarning yaratilishida qariyb o’ttiz yillik mashqlar tajribasini bir nuqtaga yig’di, bor poetik his va tuyg’ularini, prozaik mushohadalarini safarbar qildi. Eng muhimi shuki, adib bu yerda ham asar uchun material yig’ganda yana o’z hayot yo’liga, ko’rgan-bilgan va boshidan kechirganlariga murojaat qildi”.²⁰

“Oltin zanglamas” romani ham bundan mustasno emas. Asar Sodiq ismli muallimning taqdiri haqida. Bu bir romanga arziydigan taqdir! Davrning jabr-jafosini tortgan, tuhmatlarga chidagan, biroq zamonga, o’sha davrdagi xurofotlarga qul bo’lib qolmagan, o’z haq-huquqi uchun kurashgan ilm –ma’rifat sohibi Sodiqning ayanchli, mashaqqatli taqdiri orqali Shuhrat o’z iste’dodining individual xususiyatlariga monand hayotning izdan chiqqan tomonini aniqroq ko’rgan va tasvirlagan.

²⁰ Кошжонов М. Сайланма. Икки жилдлик. 1-жилд. - Т., 1983. 293-бет

Roman Sodiqning ukasi –Qodirning bir qizni tasodifan uchratib qolish lavhasi bilan boshlanadi. Shu o'rinda muallifning tabiat tasviri mahorati alohida e'tiborga loyiq. Xarakterlar ruhiyati bilan tabiat manzaralari va joylar tasvirini yonma-yon olib borish adabiyotda ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, bu usul asardagi tabiat manzaralari va joylar tasviri qahramon ruhiyatini ochishga, qahramon kayfiyati esa joy yoki tabiat manzaralari tasvirini qabul qilishga xizmat qiladi.

Ruhiyat va tabiat uyg'unligi ijodkor tomonidan o'ylab topilgan hodisa emas, balki ob'ektiv amal qiluvchi qonuniyatdir. Mana shuning uchun adib romanda ruhiyat va tabiat tasviri uyg'unligi qonuniyatiga amal qiladi. Xususan, "...U bog'da, maysa ustida, ko'ylagini chiqarib, botinkasini yechib, maykada dars tayyorlab o'tirardi. Havo dim. Qilt etgan shamol yo'q. Daraxtlarning barglari qo'rg'oshindan quyilgandek vazmin sollanib turadi. Faqat anhor chetidagi o'siq gilyohlarni suv epkini o'z holiga qo'ymay tortqilaydi, "yur biz bilan!" degandek buki ketadi.

Qodir na havoning dimini, na vaqtning o'tganini bilardi. U bilan o'chakishgandek bir juft musicha parr etib qayoqdandir oldinma –keyin uchib keldi-da, uning yoniga tushdi. Oldin uchib kelgani keyingisiga tutqich bermas, u "ku-ku"lab qarshisiga borsa qochardi. Yo'rg'alab yoniga o'tsa, uchib sal nariga tushadi. Yana keyingisiga xushomad qiladi... Birdan cho'qilashib ketishdi. Ikki yuvosh parrandaning bu nojo'ya ishi Qodirning g'ashiga tegib, endi haydamoqchi bo'lib turgan edi, bittasi daraxtga uchib o'tdi, keyingisi ketidan qarab qoldi. Qodir "qani, endi nima qilar ekan!" deb turgan edi, qarshisida bir qiz ko'rindi..."²¹ Bu tasvir Qodirning qizni uchratguncha bo'lgan fursatning aksi. Endi bundan keyingi holatga e'tibor qaratamiz:

²¹ Шуҳрат. Танланган асарлар. Иккинчи жилд. Тошкент, АСН. 1980,

“...Bir ozdan keyin o’sha tomondan qizlarning kulgisi eshitildi! Bu kulgi ichidan Qodir qizning ovozi tanidi va yuragi gursillab urib larzaga keldi...

Qodir o’zini zo’rlab dars tayyorlamoqchi bo’lgan edi, ko’zi kitobda yaxmalak otib, hech narsa boshiga kirmadi. Lekin, nima uchundir, birdan xayoliga o’sha atlas ko’ylak, chilvir soch, kulishi yoqimli qiz emas, boyagi musichalar keldi. Atrofiga qarab ularni ko’rmadi. Shunda xayoliga keldi: qiziq, ular o’sha qiz kelguncha uchib ketishdimi, yoki keyinmi? Nega men payqamay qoldim? Ular yarashishganmikin, yoki hali ham quvlashib yurishibdimi? Yarashgandirlar! Yarashishlari kerak. Gunohi bo’lsa ham kechirishi kerak, yalinib yalpog’lanib o’lyapti, bechora! Bag’ritoshlik yaxshi emas. Ahillik, mehr-u muhabbatga nima yetsin!”

Ko’rinib turibdiki, yozuvchi parallel ravishda ham tabiatni, ham qahramonning ichki kechinmalarini tasvirlagan. Qizni ko’rishdan oldin musichalarni haydab solishga tayyor qahramon sevgi ta’sirida mehribon bo’lib qoladi.

Qodir asardagi yetakchi qahramonlardan biri. Uning tabiati ko’proq bizga tanish qiz bilan bo’lgan suhbatlarda namoyon bo’ladi. Muloqot jarayoni o’ta sinkretik tabiatga ega bo’lib, unda xarakterlarning o’zlarini tutishlari, holati va kayfiyatlari yaqqol namoyon bo’ladi. Shu sababli adib bunday hayotiy holat, vaziyatda xarakterlarning faoliyatini tabiiy tasvirlashga intiladi. Ruhiyat tovlanishlarini ochishning ob’ektiv yo’li hamma vaqt muallif bayoni vositasida olib boriladi. Bunday bayon goh xarakterlarning tashqi qiyofalari yoki xatti-harakatlari tasviriga ko’chsa, goh ularning nutqlarini yoxud ichki tuyg’ularini ilg’ashga ko’chadi. Xarakter ruhiyati, nutqi va harakatidagi g’alayonni to’g’ri, tabiiy uyg’unlikda tasvirlanishi badiiy asarning hayotiyligini ta’minlaydi. Muloqot jarayonida xarakterlar ruhiyatini ochishda Shuhratkatta tajriba orttirgan. Shu bois, uning qahramonlari o’rtasidagi barcha muloqotlar kishiga qattiq ta’sir qiladi, muloqot ishtirokchilarining ruhiyati aniq

sezilib turadi. Bunga adib soʻz, xatti-harakat va holat tasvirini birgalikda, uygʻunlikda olib borish, aniqrogʻi, ruhiyat tasvirining sintetik usulini qoʻllash orqali erishadi. Umuman olganda, romanlarda xarakterlar ruhiyatini ochishda personajlar oʻrtasida muloqotlar juda koʻp foydalanilgan. Bu muloqotlar asarning gʻoyaviy yoʻnalishi, ijodkorning maqsadi, asarning konsepsiyasini aniqlab berishdan tashqari unga kuchli taʼsirchanlik, keskin drammatizm va hayotiylik bagʻishlagan:

“– Kechirasiz, Azizaxon, birov koʻrib qoladimi deb qizchadan...

Shu soʻzdan Aziza tetiklashdi:

-Hozir koʻrmayotganmikin? Oʻtib turganlar “birov”masligini qayoqdan bilasiz: mang, oling-da, oʻz qoʻlingiz bilan boshqatdan bering? Nimalar yozgansiz? Juda qalin-ku.

Aziza choʻntagiga qoʻl tiqqan edi, Qodir xatini rad etib qaytib berayotganda shoshib qoldi.

-Mayli, mayli, tura bersin. Bundan keyingisini...

-Iye hali yana yozmoqchimisiz? Shoirmisiz, muncha yozishni yaxshi koʻrasiz...”

Yuqoridagi suhbatdan Qodirning bir qadar jurʼatsiz, uyatchan yigit ekanligi namoyon boʻladi. Ammo asarda davomida Qodir mardligi, Vatan oldidagi sadoqati bilan kitobxon yodida qoladi. Bunday xulosa Qodirning asir tushishi bilan bogʻliq. Oʻshanda nochor ahvolda boʻlishiga qaramay, Ali Naimxon ismli kishining tashviqotlariga berilmay, oʻziga, oʻzligiga, qolaversa, Vatanga sadoqatini saqlay oldi. Asar yakunida esa shunga munosib mukofotlandi.

Asarda ayollar obrazi alohida ahamiyatli.

Adolat xola – Sodiq va Qodirning onasi. Haqiqiy oʻzbek onasi. Uning tilida, koʻzlarida mehr bor. “Adolat xola tabiat halimdek yumshoq, shirinsoʻz ayol edi. “Siz” ham, “sen” ham bir ogʻizdan chiqadi. “Siz”ni “sen” qilish yaxshi emas, derdi, oʻzi shu aqidasiq amal qilari, ikki soʻzining birida “jon bolam” deb turar

edi. Shuning uchun butun mahalla uning ismini aytmay “jonbolam xola” deyishar, bu soʻz xolaning qulogʻiga kirib qolsa kulib qoʻya qolardi”. Unda yozuvchi oʻzbek ayollariga xos sabr, chidamni ham tasvirlagan. Bu uning Sodiqning ikkinchi xotini Musharrafga boʻlgan munosabatida ham aks etadi:

“Bugun ertalab ham Musharraf nimanidir bahona qilib dilsiyohlikni boshlamoqchi boʻlgan edi, Sodiq aytganini ogʻziga tutdi-yu, u qayoqqadir chiqib ketdi. Orqasidan hayron boʻlib qarab qolgan Sodiq onasiga nolidi:

-Bu qanday boʻldi, oyi!

-Qoʻy, jon bolam, xafa qilma! U hozir ikki yoʻlning oʻrtasida oʻtiribdi, -dedi Adolat xola Musharrafning oy kuni yaqinligiga ishora qilib. –Aslida “ayb oʻzingda, boshida mahkam tutmading, menga farzand tugʻib berar ekan, deb ogʻziga qarading, erkalab, suyiltirib yubording”, - demoqchi edi, lekin damini ichiga yutdi. Shundoq ham dili vayron boʻlib oʻtirgan oʻgʻliga rahmi keldi, misol keltirib, insofga chaqirdi:

-Kishi turadigan uyning toʻrt burchagi bor, bolam, ikki burchagidan bol, ikki burchagidan zardob oqadi. Bolidan lazzat koʻrgan zardobiga ham qanoat chidashi kerak, jon bolam. Hamma Jannat boʻlavermaydi. Gulni deb tikanni ham sugʻuradi, kishi. Betashvish uy qayda bor, jon bolam. Koʻzi yorisa, bola bilan oʻralashib, tinchib qolar. Qattiq gapirma.” Bu haqiqiy oʻzbek onasining farzandi oilasining mustahkamligi va tinchligi yoʻlida aytgan gaplaridir. Yozuvchi kat butun asar davomida ham Adolat xolaning mana shunday qirralarini tasvirlashga harakat qilgan.

Jannat- Sodiqning birinchi turmush oʻrtogʻi. Bunda yozuvchi qahramonga ism tanlashda ham ramziylikni mujassamlashtirgan. Goʻyoki ayollarning eng yaxshi xislatlari bir xil shaxsda aks etgandek. Asarda Jannatning yolgʻiz “aybi” farzandsizligi. Ammo unda sabr, onalarga xos mehr, bardosh, vafo kabi eng yuksak qirralar bor.

“...Ha, u o’zini tutib olgan. Garchand Sodiqqa “O’zingizni qiynamang, men rozi” deb, uylanishiga rozilik bergan bo’lsa ham, bu o’rtada Musharrafning darrov tiqilib qolishi, hademay homilador bo’lib hamma yoqqa ovoza tarqatib yuborishi Jannatga pishmagan patani yorishdek azob berdi. Shundan keyin bu uyda turolmadi, endi orqa eshikdan kirib chiqish ham unga malol kelib qoldi. Buning ustiga, bir kuni Musharrafning Sodiq bilan bo’lgan ko’ngilsiz to’qnashuviga, to’g’risi janjaliga beixtiyor guvoh bo’lib qoldi. “Oh, bechora erim, ko’mir deb olovni changallagan ekansan”,- deb yuragi achidi. U Sodiqni astoydil sevardi. Uning ozor chekishiga asti chidamas edi. Adolat xolaning “jon bolam, endi siz qizimsiz, qayoqqa borasiz, ruxsat bermayman”, deyishiga qaramay, ko’chib ketdi. Garchand “kelib turaman, oyi, sizdan boshqa kimim bor bu shaharda” degan bo’lsa ham, keyinchalik kelolmadi. Musharrafdan hayiqdi. “O’zi janjalni pulga sotib oladigan, labi yupqagina ekan, tag’in ko’ngliga boshqa gaplar kelib tinchligimni buzayotgan kundoshim deb yurmasin”, degan andisha bilan kelmadi. Sog’inchini, alamini ichiga yutdi. Bu orada Musharrafning ko’zi yoridi, Sodiqning og’zi qulog’iga yetib, quvonib yurdi. Buning hammasini orqavarotdan eshitib, Sodiqning orzusi ushalganidan g’oyibona sevingan bo’lsa ham, yuragining allaqayerni sovuq shamol yelpib ketdi, badani zirqiradi. O’sha zirqirashni insof kuchi bilan yengib, “ha, mayli, dunyoda bitta baxtsizning kamaygani yaxshi”, dedi ichida.”

Dunyoning bir kamligini yozuvchi Jannat misolida ta’rifalaganligining guvohi bo’lamiz. Aytib o’tish kerakki, har qanday ayol ham bunday sabrga, matonatga ega bo’lavermaydi. Jannat xarakteridagi muloyimlik, har qanday vaziyatda ham bosiqlik, vazminlikni tark etmagan o’zbek ayoli sifatida milliy qadriyatlarimizni mujassamlashtirgan.

Nihoyat, asar bosh qahramoni- Sodiq. Sodiq-o’zbekning oriyatli, tanti o’g’loni. O’sha davrda bo’lishi mumkin bo’lgan hayotning hamma murakkabliklaridan o’tdi. U umrining olijanob umid orzulari bilan to’lib toshgan bir paytda fisq-fasod va tuhmatlar hokim bo’lgan muhitga tushib qoladi. Shu

tufayli u o'z boshidan og'ir-og'ir holatlarni o'tkazadi. Muhit olijanob umid-orzularining amalga oshishiga monelik qilsa ham, uning insoniylik xislatlarini so'ndira olmaydi. Har bir qadamda o'z manfaatini o'ylaydigan, bu yo'lda har qanday qabihlikdan ham, egri xulosalar chiqarish yo'lida qilni qirq ayirishga urinadiganlar bilan duch kelganda ham u o'zligini saqlay oladi. Bunday o'g'lon har qanday qiyinchilikka, ochlikka, yo'qchilikka chidashi mumkin, biroq adolatsizlikka aslo chiday olmaydi. Ayniqsa, insonlik sha'ni, nafsoniyati, g'ururi oyoqosti qilinganida faqat o'zigina emas, butun boshli xalqi sha'ni toptalayotganini, yulg'ich, poraxo'r, tekinox'rlikda ayblanayotganini ko'rganida o'zini qo'yarga joy topa olmaydi. Sodiq o'zining begunohliliga to'la ishonadi, ishongani uchun ham «qaysi yozuqlarim uchun qamashdi meni», degan o'y jismoniy azoblardan ham ko'proq qiynaydi uni.

Kitobxon shunday xulosaga keladiki, hayot o'zi oliy hokim: roman syujetining rivojida boshqalar hayotiga xuruj qilishga odatlangan nopoklar bosqichma-bosqich fosh bo'la boradi, Sodiqni oltin singari o'tda kuymaydigan, suvda zanglamaydigan haqiqiy inson ekanini anglab olamiz.

Sodiq obrazi, umuman, asardagi kurashchan ruh faqat adabiy hodisa sifatida emas, muhim ma'naviy-ijtimoiy omil sifatida ham qimmatlidir. Gap shundaki, o'zbeklar yoppasiga itoatkor, mute, tobelikka, qullikka moyil xalq degan uydirma anchadan beri aylanib yurardi. To'g'ri, xalq orasida shunday illatga muhtalo kimsalar bor. Biroq o'z sha'ni, g'ururini baland tutadigan, el-yurt, Vatani, or-nomusi yo'lida, adolat, haqiqat, erk yo'lida jonini, jahonini fido etishga tayyor dovyurak, buyuk Qodiriy singari «xo'rlikdan o'limni tansiq» sanaydigan jasur kishilar ham ko'p.

Ma'lumki, xarakterlar tasviri, dastavval, hayot sharoitlari va muhitga bog'liqdir. Hayot Sodiqni murakkab bir sharoitga olib kirib qo'yadi. Asarning boshidan oxirigacha yozuvchi o'zini go'yo sevikli shogirdini ko'p vaqtlar o'qitib – ilm berib, hunar o'rgatib, hayotga uning mustaqil qo'yayotgan birinchi qadamlarini

kuzatayotgan ustadek his qiladi. Qahramonning dadil qadam bosishlarini kuzatib yozuvchi o'zida yo'q xursand bo'ladi. Ba'zan, yozuvchi Sodiqning qiyinchiliklar oldida yuragi dov bermagan paytlarini, hadiksirashlarini ko'rib achinadi. Yozuvchi qahramon oldiga katta va mas'uliyatli vazifa qo'yadi, shunga munosib aytmoqchi bo'lgan gaplarning hamda xarakterning ishonarli bo'lishi uchun g'am yeydi. Buning uchun yozuvchi asarning boshlaridayoq o'quvchiga o'z qahramoninning ichki potensial kuchidan darak berishga harakat qiladi. Boshqacha aytganda, yozuvchi qahramonni ma'lum bir balandlikka –tramplinga chiqaradi: “Direktor qilib tayinlangandan keyin, Sodiq aspiranturaga kirish niyatini endigi yilga qoldirdi.”

Yozuvchi Sodiqni asar boshlarida hamma narsani biladigan, kamchiliksiz qilib tasvir etmaydi. Sodiq bir muncha sodda, inoslarga ishonuvchan, barchani o'zi kabi to'g'riso'z, diyonatli deb o'yladi. Balki, shuning uchunmi, hayotda ko'p qiynaladi. Shunga qaramasdan, u o'ziga va vijdoniga xiyonat qilmaydi. Shu boisdan ham, yozuvchi bu qahramonga “Sodiq” deb nom tanlagandir.

Qahramonlar xarakterlarida voqealar, vaziyat, muammolardan kelib chiqmaydigan, ular bilan asoslanmaydigan psixologizm asarni buzadi. Shuning uchun ham yozuvchi voqealar bilan psixologik xolat o'zgarishlar orasidagi munosabatni to'g'ri belgilashga urinadi. Sodiqning har bir qadamida yangi xususiyatlar paydo bo'la boradi. Masalan, og'ir vaziyatlar Sodiqda ishchanlikni, ishning nozik, hal qiluvchi nuqtasini darhol seza bilish qobiliyatini oshirdi. Sodiq xarakteridagi psixologizm undagi ishchanlik, tadbirkorlik bilan chambarchas bog'lanib keladi. Asarning eng qimmatli tomonlaridan biri ham ana shu.

Sodiq hayotning mas'uliyatli paytlarida o'z pozitsiyasida qilt etmay turoladigan kishilardan. Shu tufayli, jaholat va yovuzlik bilan bo'lgan to'qnashuvlarda g'alaba qozonadi. Lekin g'alaba osonlik bilan qo'lga kirmaydi.

Qahramon ichki dunyosidagi holat o'zgarishlarining –ruhiy dialektika asardagi fikr oqimini gavdalantirishga, markaziy g'oyani ifodalashga qat'iy

bo'ysundirilgan. Bu hol esa psixologizmni muayyan tartibga solidi, obrazli qilib aytganda, bir qancha fazalarga bo'ladi. Uning har bir fazasi katta dengiz to'liqini uzoqlardan talpinib kelib qirg'oqqa urilib qaytgani singari, yana zo'rayib keladi-da, ma'lum bir tabiiy sabablarga duch kelib qaytadi. Uning ketidan ikkinchi faza boshlanadi...

Biz yuqorida Sodiqning ishda zehnliligi, tadbirliligi, umuman ishning ko'zini bilishligi to'g'risida gapirgan edik. Sodiqdagi bu xususiyatlar dogma shaklida emas, balki progressiv rivojlana boorish yo'sinida gavdalantiriladi. Eng avvalo, Sodiq ishni Shukurov (maktab o'qituvchisi, axloqi yomon)dan boshlaydi. Uning xotinidan eri to'g'risidagi arz-dodini esshitib, so'ng o'zi bilan gaplashib oladi. Bu orada ilmiy mudir Mirsalimning aslida qanday odam ekanligi to'g'risida gap ochadi. Bunga boshqa maktab o'qituvchilari ham dalil keltirishadi. Sodiqning keying faoliyati bevosita Mirsalimga qarshi qaratiladi.

Sodiq bilan Mirsalim oralaridagi munosabatning nisbat o'zgarishlari ularning to'qnashuviga ta'sir ko'rsatadi. Mirsalimga nisbatan Sodiq psixologiyasida bir-birlariga zid bo'lgan ikki kuch paydo bo'ladi. Birinchidan, "Sodiq o'rtoqlarining so'zi bilan o'zining ko'rganlarini chog'ishtirdi: ularning gapida jon bor. Kollektiv uni xush ko'rmaydi, to'g'risi u kollektivga qo'shilmaydi, bir pog'ona yuqori yuradi. Shuning uchun uning nuqsonlari bo'rtibroq ko'rinsa ham ajab emas" kabi fikrlar uni Mirsalimga yon bosishga undar edi.

Ammo ikkinchi tarafdin: Sodiq endi Mirsalimning "mehribonligi" ortida nima borligini tushunadi: "...-Mana Mirsalim o'rtog'ing berib yuboribdi! –deb oldiga ikkita sur to'sh qo'ydi. Tuzi yuziga tepib, moyi sarg'ayib ketgan to'sh issiqdan yiltillardi. "Buni mening og'zimni moylash uchun yuborgan, albatta", deb o'yladi Sodiq va o'zini juda noqulay ahvolda his qildi..."

Shu tarzda voqealar oqimi shunga olib keladiki, Sodiq Mirsalim oldida xavfli bir kuch bo'lib qoladi. Natijda, Mirsalim turli tuhmat va bo'htonlar bilan Sodiqni qamatib yuboradi.

Ammo Sodiq obrazini to'laqonli tasvirlash uchun asarning urush yillari bayon qilingan qismiga murojaat qilmay ilojimiz yo'q. Frontda u o'zining haqiqiy inson, e'tiqodi butun kishi ekanligini namoyon etadi. Uni biz pok vijdonli deya ta'rif etdik, chindan ham shunday. U nohaq qamalgan bo'lsa ham, frontda ko'rsatgan jasorati uchun gazeta muxbiri uning rasmini olib ketganida o'zini bir qadar noxush sezadi. Chuunki, Sodiq o'zining qilgan gunohini –qochoq ekanini biror lahza unutmas, ba'zan bu narsa qalbini iskanjaga olib ezar edi.

Sodiqning jonbozligi, hattoki, tergovchilarni ham sarosimaga solib qo'yadi: "... hokimiyatdan dakki yegan Sodiqdek bir odamning bunchalik matonat bilan jang qilishiga, oddiy to'qnashuv paytida emas, balki o'z xohishi bilan talab etib borib qahramonlik ko'rsatishiga Chuxanovning aqli bovar qilmas edi..."

Sodiqni asar yakunida muallif munosib taqdirlaydi: "...-U oltin odam edi! Oltin esa, zanglamaydi! Er yigit el uchun tug'iladi, el uchun o'ladi. Unga shon-sharaflar bo'lsin! –dedi o'z to'pponchasidan o'q uzib, uning sha'niga berilgan salyutga qo'shildi". Zero er yigit uchun xalq olqishidan ortiq mukofot yo'q.

Sodiq obrazi haqida shunday xulosaga kelish mumkin: asarda tasvirlangan zanglamas oltin, haqiqiy erk, pok vijdon egasi u.

Shuhrat ijodining asosiy obyekti inson –uning his-tuyg'ulari, har xil fasldagi, har xil bosqichdagi sirli kechinmalari, dard alamli iztiroblaridir. O'zi o'sib ulg'aygan ona Vatani, uning o'ziga yarashgan urf odatlari, hayot va mehnat tarzi, qo'lga kiritgan yutuqlari, husn-u jamoli –bularning hammasi Shuhratni qiziqtiradi. U nimalar to'g'risida yozmasin, o'zining qanday his-tuyg'ularini izhor qilmasin, uning asarlari "xalq", "vatan", "el" tushunchalari bilan boshlanadi va shu tushunchalar bilan tugallanadi. Zotan, u o'zining butun ijodini "elga bir yodgor" deb biladi.

2.2. Asar personajlarida mustabid tuzum illatlarining ifodasi

Badiiy asarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan yozuvchining syujet va xarakter yaratish mahoratiga bog'liq. Asarda yetakchi obrazlar bilan bir qatorda,

o'zida ma'lum illatlarni ifodalagan qahramonlarning ham o'ziga xos ahamiyati, o'rni bor. Ayniqsa, Shuhratning salbiy jihatlari ko'proq bo'lgan qahramon portretini yaratishdagi o'ziga xosligi diqqatga sazovordir. Agar adib uslubini A.Qodiriyning portret yaratish uslubi bilan solishtirib ko'rsak, bu o'ziga xoslik yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Salbiy qahramonlar portretning tipik namunalarini yaratgan A.Qodiriy o'z qahramonlarining qiyofasini mumtoz adabiyotimiz an'analariidan kelib chiqib chizgan. Ya'ni, yaxshi xulqli ijobiy qahramonlar-go'zal, aksincha salbiy qahramonlar xunuk qilib tasvirlangan. Misol tariqasida, Homid, Sodiq, Jannat qiyofalarini eslash kifoyadir. Shuhrat qalamiga mansub asarlardagi qahramonlar portretini ko'zdan kechirganda boshqacha holni kuzatamiz. Yozuvchi har bir xarakter qiyofasini ochishda realistik yo'l tutadi, ya'ni qanday obraz bo'lishdan qat'iy nazar, uning tasviriga xolisona yondashadi, asl qiyofasini xatti-harakatida, faoliyatida ko'rsatadi».

Shuni ham ta'kidlash kerakki ,adib qahramonlari qiyofasini real tasvirlar ekan, o'z munosabtni yashiradi, iloji boricha, ochiq ifodalashdan qochadi. Hatto, o'quvchi nafratiga loyiq qahramonlarni ham kelishgan, chiroyli, qomatdor qilib tasvirlaydi.

Agar Shuhrat yetakchi qahramonlarni ko'pincha, ichidan yoritishga, ularning qalbiga kirib borishga harakat qilsa, aksincha, o'zida ma'lum illatlarni ifodalagan qahramonlarni, aksariyat, tashqi ko'rinishiga asoslanib tasvirlashga intilgan.

Shunisi xarakterliki, adib salbiy qahramonlarni qoraga chaplab ko'rsatmaydi, aksincha ularni kelishgan, xushsurat, kishini o'ziga rom qiladigan odamlar sifatida ob'ektiv tasvirlaydi.

Mustabid tuzum illatlarini qamrab olgan qahramonlar portretini ancha mukammal tasvirlaydi. Ularning tashqi ko'rinishi bilan ichki dunyosini dialektik birlikda tasvirlab, qator to'laqonli xarakterlar yaratishga erishgan. Xulosa qilib aytganda, Shuhrat ijobiy qahramonlarning salbiy xislatlarini ham, salbiy

qahramonlarning ijobiy fazilatlarini ham hech bir qo'shib-chatmay, xolis tasvirlaydi. Ularga bo'lgan o'z munosabatini (simpatiyasi yoki antupatiyasi) ochiq ravshon oshkor etmaydi. Balki o'z munosabatini qahramonlari portretining qatiga ustalik bilan «yashiradi».

“Oltin zanglamas”dagi biz duch keladigan qahramonlardan biri bu – Mirsalim: “...Sodiqning birinchi uchratgan kishisi Mirsalim bo'ldi. G'o'labirdan kelgan sertakalluf bu odam maorif eshigida unga ro'para keldi-yu, salomlashganga o'xshash bir harakat qilib, uning diqqatini o'ziga tortdi...” Yozuvchi Sodiq xarakteridagi eng nozik qirralarni tasvirlash uchun Mirsalim obrazidan foydalangan. Mirsalim - xudbin inson. “Yagona men bo'lsam”, bu so'zlar Mirsalim obrazining asosiy mazmunini belgilaydi. Xudbin kishilar ko'pchilikdan ajralgan bo'ladi. Ular odatda hayotning umu oqimidan chekkaroqda turib, keyin olg'a o'tib olishni orzu qilib yuradilar. Shunday kishilar bo'ladiki, ular o'zlarining xudbin niyatlarini yashira biladilar, ma'lum bir maqsadni ko'zlagan holda parda orqasida turib astoydil harakat qiladilar, ko'pgina muvaffaqiyatlarga erishadilar ham. Bu aynan Mirsalimdir.

Asarda Mirsalim “o'g'ri mushuk”, “ikki dilli va ikki tilli”, “tirnoq ostidan kir qidiradigan odam” sifatida tasvirlangan. Ammo eng dahshatlisi, u xoin. Ko'rinib turibdiki, muallif bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar yaratgan. Sodiqqa qarshi Mirsalim. Bu xuddi yaxshilik va yovuzlik o'rtasidagi boqiy kurashga o'xshaydi.

Mirsalim uchun muqaddas deb hisoblaydigan hech narsa yo'q. Hattoki, oila sanalmish dargoh uning uchun bunday sharafiga loyiq emas. Oilasi, jufti haloli, qizi borligiga qaramasdan begona ayollarga ilakishib yurishi uning xulqidagi yana bir nuqsonni namoyon qiladi

Tuhmat. Bunday dahshatli ofatdan asrashini so'rab keksalar duoga qo'l uzatishadi. Ammo Mirsalim uchun bu ham oddiy holga aylangan. Sodiq ustidan bir talay bo'htonlar to'qib, uni shunday og'ir kulfatlarga ro'baro' qilganda ham uning

vijdoni qiynalmaydi. Manfaat yuzasidan barcha insoniy xislatlarini yo'qotib bo'lgan u.

Muallif Mirsalimning xarakterini gavdalantirishda pog'onaviylik yo'lidan borgan. Oddiy laganbardorlikdan xoinlikkacha ko'tarilgan illatlar buning isbotidir. Balki, illatlarning darajasi bo'lmaydi, ularning bari bir xilda yomon, dersiz. Ammo laganbardorlik, hattoki, xotinbozlikka ham ko'z yumish mumkin, Vatanga xiyonatni kechirib bo'lmaydi: "...Qodir ularga qaradi. Qaradi-yu, hangu mang bo'lib qoldi: asirning biri Mirsalim, uning seviklisi Azizaxonning dadasi Mirsalim edi. "Bu ham asir tushibdi-da!" deb ajablangsnicha bo'lmay, Ali Naimxon bitta o'zi saf oldida hamon tumshayib turgan chinoq asirni mashinaga chiqishga buyurdi. Ana shunda Qodir mashinadagilar kimligini tushunib, o'z ko'zlariga ishinmadi. "Nahotki, ko'kragiga mushtlab yurgan Mirsalim xoinlikka rozilik bildirgan bo'lsa! Yo'g'-e! Ehtimol adashayotgandirman. Odam odamga o'xshashi mumkin".Qodir shunday o'ylar bilan mashinaga ko'zini qadadi, hatto o'zining safdan ajralib chiqib qolganini ham payqamadi. Yo'q, o'shaning o'zi! Qodir adashmagan! Xuddi o'shaning o'zi! Axir oraliq kishi adashtiradigan darajada olis ham emas. Qodirning ko'zi esa yaxshi ko'radi".

Asardagi hayotiylikni ta'minlagan unsurlardan biri, bu –qahramonlarning mukofotlanishi va jazolanishi. Shundan kelib chiqib Mirsalim ham bundan mustasno emas. Asar xotimasida u qilmishiga loyiq jazolanadi.

Asardagi Musharraf obrazi esa Jannatga qarshi qo'llangandek. "Musharraf yolg'iz qaddi –qomati bilan emas, labi ustidagi kichik –moshdek timsiyoh xoli bilan ham faxrlanardi..." Yuqorida aytib o'tganimizdek, Shuhrat salbiy qahramonlarni tasvirlashda ularni xunuk qilib ko'rsatmaydi. Musharrafning butun sir – sinoati uning bor illati asardagi voqealar rivojida namoyon bo'ladi.

Niqob. Insoniyatga xos qurol. Asar boshida Musharraf xuddi shunday niqob ostida tasvirlanadi. Garchi to'liq oilaviy baxtni bilmay ulg'aygan bo'lsa-da, yoshligida havoyi gaplarga aldanib qon qaqshagan bo'lsa-da, taqdir unga yana bir

imkon beradi. Sodiqday turmush o'rtog'i bilan u baxt qasrining malikasi bo'lishi mumkin edi. Ammo nafs, ochko'zlik bunga to'siq bo'ladi.

Sodiq bilan Musharrafning uchrashuvi oldindan belgilangan bo'ladi. Musharraf Sodiqni "orqavarotdan surishtirdi: u yomon emas, minsa ham bo'ladi, oldiga solib yursa ham bo'ladigan. Axir qachongacha beva yuradi, bevani tuyaning ustida it qopadi..." Mana shunday xayollar bilan u Sodiqqa turmushga chiqadi. Bunda unga ayollarga xos makr, xiyla qo'l keladi. Faqat bunda emas, umuman, asar davomida ayol makri qirq tuyaga yuk bo'lishining amaliy isbotini Musharraf misolida ko'ramiz.

Musharraf o'z nafsining asirasi bo'lganining bir necha bor guvohi bo'lamiz: "... -Qayoqdan toparkin bunaqa tansiq narsalarni? Tunov kungi qazisini qarang: og'zingga tushmay eriydi-ya!...Ayting, tunov kuni uyida oldimizga qo'yganiga o'xshagan qazidan bir ikkita topib bersin. Keldi –kettiga juda yaxshi-da! –dedi Musharraf sur to'shni olib ketar ekan..."

U erining bir necha yildan buyon befarzandligini bilar, bunday baxtni unga tortiq qilish evaziga uning inon-ixtiyorini egallab olgan edi: "...Sodiq aytganiga quloq solmasa, avvaliga "ha, bilib qo'ying, bolangizning qulog'i chinoq bo'lib qolsa mendan emas, o'zingiz men aytgan narsamni olib bermayapsiz", deb erkalalar, "xotin homiladorligida siqilsa, kam –ko'stlik tortsa nuqsoni bolaga uradi", deb eshitgan Sodiq qarshilik qilmas, u boshlagan ko'chaga yurib, u ochgan eshikdan magazinga kirdi. Ko'ngli tusagan narsani yedirdi, havas qilgan libosini kiydirdi. Avvaliga havas va zarurat bilan boshlangan bu ishlar keyinchalik zug'umga, dag'dag'aga aylandi. Bunday paytda Musharraf yer tepinar, hali tug'ilmagan bolani ming baloga giriftor qilar, karavotga o'zini otib soatlab yig'lar edi."

Uning bunday erkaligi faqat eriga bo'lsa ham mayli edi. Bu zug'umdan Adolat xola ham aziyat chekdi: "Adolat xola kelinining yonini olib, qnchalik mehribonlik qilmasin, Musharrafning ortiqcha xarajatlaridan xursand emas edi.

Shuning uchun sotib kelingan ota hovli pulining cho'g'i o'chishini ko'rib, "qo'li ochiq" o'g'lidan o'pkalandi, bu bilan ham qanoat qilmay: "Qodirning hissasini bu yoqqa ber", -deb bir qismini olib qo'ydi. Buni eshitgan Musharrafning joni – fig'oni chiqib ketdi:

-Dod, kundoshdan battar qaynona dastidan! Kiysam go'rimga orqalab ketamanmi, o'g'lining obro'yi! Direktorning xotini bo'la turib sarpoychan yuraymi! Bo'z kiyaymi!

-Bo'zni siz bilmaysiz,bo'z nimaligini bizdan so'rang, jon bolam!"

Lekin eng achinarli holat Musharrafning eri ustidan uyushtirilgan tuhmatga sherik bo'lishi edi. Aynan shu lahzada Sodiq farzandining onasi qanday ayol ekanligini anglab yetadi.

Musharrafni haqiqiy ona deb ham bo'lmaydi: "-Ha, Bolam, muncha bo'g'ilasan, birov uryaptimi seni. Hozir onang chiqadi!

Ona chiqmasdi. Adolat xola shoshib qoldi. Maratni ko'tarib, derazadan keliniga qaradi. U uyning to'ridagi toshoyna oldida bamaylixotir pardozi qildirdi. Hali –veri chiqish niyati ham yo'qday edi.

-Ha, bas endi, qolganini keyin qilarsiz, bolaning o'pkasi uzilib ketdi, -dedi jahli chiqqan qaynana yumshoqlik bilan o'zini bosib. Musharraf eshitmagan kishidek beparvo pardozi qildirdi."

Musharraf ham yozuvchi tomonidan qilmishiga yarasha jazolanadi:

"...Bir haftadan keyin shaharning kam qatnovko'chlaridan birida xotin kishining murdasi topildi; hamma hayron: qo'lida qo'shbilakuzuk, sumkasida anchagina pul. Biror yeri chaqa bo'lmagan.

Keyinchalik ekspertiza aniqlashicha, shu atrofda kimdir uyida yashirincha abort qilgan. Homilador abortdan omon chiqmagach, kechasi o'ligini ko'chaga chiqarib tashlagan.

Bu Musharraf edi."

Hayotimiz qarama-qarshiliklardan iborat. Oq oldida doimo qora hamroh. Yozuvchi bu dualistik qarash ifodasini aynan Mirsalim va Musharraf singari obrazlar talqinida tasvirlagan.

XULOSA

XX asrning so'nggi choragi o'zbek romanchiligi ham miqdoriy ham sifatiy o'zgarishlarni o'z boshidan kechirdi. Milliy nasrimizda xalqnnig hozirgi hayoti, millat ruhiy olamida sodir bo'layotgan turli xildagi evrilishlar o'zining badiiy ifodasini topdi. Mana shu davrda xalqnnig ma'nolariga murojaat qilish orqali millat ongida qaytadan kurtak otib kelayotgan uyg'onish epkiniga alohida ma'naviy oziq berish tamoyili kuchaydi. Ijtimoiy mavzudagi asarlar milliy adabiyotdagi ushbu jarayonning o'ziga xos ijtimoiy-estetik sabablari bor. Birinchidan, real voqealikni o'ta darajada ideallashtirib tasvirlash ijodkorlarni qoniqtirmay qo'ydi. Real voqealik bilan badiiy voqealik o'rtasidagi nomuvofiqlik ijodkorlarni ideal voqealik tasviriga ko'proq tortdi. Shuhrat asarlarida qahramonlar xarakterlari ruhiyatini tasvirlashda hozirgi zamon romanchiligida keng qo'llanilayotgan xotiralarni eslash, ichki va tashqi monolog, dialog, tush ko'rish, gallyusinatsiya, illyuziya, portret, tabiat tasviri, muloxaza yuritish kabi usullari istifoda etilgan. Shu sababli asarlarda xarakterlar ruhiyatini ochishda assotsiativ tasvir tamoyili yetakchilik qiladi. Adibning qator asarlaridagi xarakterlar ruhiyatini ochish faqat asarlarning mazmuniy salmog'idagina emas, balki ularning shakliy xossalarida ham siljishlar yuz berishiga olib keldi. Chunki ruhiyatdagi assotsiatsiyalar asar syujetiga assotsiativ syujet chiziqlarining kirib kelishiga, bu esa voqealar oqimida retrospektiv tasvirning kuchayishiga sabab bo'ldi. Yozuvchining xarakterlar ruhiyatini tasvirlashdagi muhim yutuqlaridan biri shundaki, u har bir xarakterning uzluksiz ong oqimini butun murakkabligi bilan ochishga, ushbu jarayonda u ong oqimining eng zaruriy qatlamida turib, ularning butun ruhiy faoliyatini bajarib boradi. Xarakterlar ruhiyatini tasvirlashda muallif va xarakter nigohining birlashib ketishi tasvirda polifoniyani-ko'p ovozlilikni kuchaytiradi. Polifoniya esa tabiiy hayotiylik demakdir. Ya'na bir muhim jihat, adib ruhiyat tasvirining eng murakkab, eng obyektiv yo'li – xarakterlarning bir- birlarini o'z nigohlari bilan

ko‘rish, bir paytning o‘zida tendensioz va xolis nigoh bilan baholash yo‘lidan boradi. Biz Shuhrat asarlari asosida uning individual uslubi va badiiy mahoratini kuzatib, shunday xulosalarga keldik:

- Shuhrat asarlari qahramonlari ma‘naviy dunyosining milliyligi bilan ajralib turadi;
- Shuhrat qahramonlari tasvirida mahaliy kolorit talqini yetakchidek taassurot qoldiradi; bu kolorit ayni paytda milliylik xususiyatlarini o‘zida jamlovchi fenomen darajasiga ko‘tariladi;
- Shuhrat asarlarida badiiy niyat va shakl o‘zaro uyg‘unlik hosil qilgan hodisa sifatida ko‘zga tashlanadi;
- badiiy niyat badiiy asarning maydoniga kelishida birlamchi ahamiyat kasb etib, ko‘p hollarda qahramonning ruhiy holati tasviri bilan bog‘liq holda reallashadi;
- badiiy shakl asarning asosiy komponentlaridan biri bo‘lib, u obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya va badiiy nutq orqali yuzaga keladi;
- Shuhrat asarlarida realizm va romantizm (“Oltin zanglamas” asari)ning uyg‘un shakli mavjud, bu uyg‘unlik yozuvchining hikoyalari kompozitsiyasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazgan;
- badiiy asarning shakl jihatdan mukammal ekanligi uning kitobxon qalbiga yo‘l topib, shuuriga ta‘sir o‘tkazishga sababchi bo‘ladi;
- Shuhrat asarlarining kompozitsiyasida kulminatsion yechim va xulosalar bevosita voqealik tasviri orqali berilishi bilan diqqatga sazovordir;
- Yozuvchi so‘zbozlikka moyildek ko‘rinsada, aslida u badiiy tasvirda har bir so‘zga katta ma‘no yuklaydi, natijada lakonizm yozuvchi asarlari uslubini belgilashda ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Ma'naviyat yuksalish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi. T., «O'zbekiston», 1998.
3. Karimov I.A. Aqliy va ma'naviy salohiyat-yangi jamiyat poydevori. T., «O'zbekiston», 1998.
4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «O'zbekiston», 1998.
5. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T., «O'zbekiston», 2017, 104 bet.

Ilmiy adabiyotlar

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. T., Fan. 1980.
2. Sarimsoqov B. Badiylik asoslar va mezonlari. T., Fan. 2004.
3. Karimov N va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., O'qituvchi, 1999.
4. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston, 2002.
5. История узбекской литературы. 4-5 том. T., Фан. 1994.
6. Adabiyot va zamon. Maqolalar to'plami. T., AS. 1980.
7. Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. T., Ma'naviyat, 1994.
8. Noramto'v U. Umidbaxsh tamoyillar. T., Ma'naviyat, 2000.
9. Qahhor A. Yoshlar bilan suhbat. T., Yosh gvardiya, 1968.
10. Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi. Maqolalar to'plami. T., Universitet, 1994.
11. Hayot ko'zgusi. Maqolalar to'plami. T., Adabiyot va san'at, 1984.
12. Karimov E., Nazarov B. Adabiy turlar va janrlar. 1 tom. T., Fan. 1991.
13. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. T., Fan. 1973.
14. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha o'zbekcha izohli lug'ati. T., O'qituvchi, 1983.
15. Mamajonov S. Uslub jilolari. T., Adabiyot va san'at, 1992.

16. Karimov H. Janr yoki uslub. T., Fan. 1991.
17. Xudoyberganov N. O'z dunyosi, o'z qiyofasi: Adabiy o'ylar. T., «Yosh gvardiya», 1986.
18. Shukurov N. Uslublar va janrlar. T., Adabiyot va san'at. 1973.
19. Niyatov Ch. O'zbek prozasida xarakter problemi. T., Fan, 1984.
20. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. T., Fan. 1973.
21. Тимофеев Л. И. Адабиет назарияси асослари. 1963. 331-332-б.
22. Голубков В. В., Мастерство А. П. Чехова, Учпедгиз, 1958, 16-бет
23. Гёте И.В. Соч. Т.Х. М., 1937. С.401.
24. Белинский В.Г. ПСС. В. 13-ти. Т. Т. 5. М., 1953. С.424.
25. Qo'shjonov M. Saylanma. Ikki jildlik. II jild. - T., 1983. 137-bet.
26. Фрейд З. Тотем и табу. –М., Прос. 1923. Ст. 165-166.
27. Гинзбург Л. О психологической прозе. Ст.285
28. Куронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Тошкент-2013
29. Тимофеев Л. И., Основы теории литературы, М., 1971
30. Храпченко М. Б., Горизонти художественного образа, М., 1982
31. Толстой Л.Н. ПСС. Т. 30-М., 1949. – С.112.

Badiiy adabiyotlar

1. Шухрат Танланган асарлар. Уч жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: АСН, 1980. – 468 б.
2. Шухрат Танланган асарлар. Уч жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: АСН, 1980. – 600 б.

Ilmiy maqolalar

1. Sarimsoqov B. Adabiyotning ijtimoiy tabiati. // O'TA, №2, 1995. – B. 46-52.

2. Turdieva K. Tabiat va ma'naviyat. // O'TA, №5, 1990. –B. 49-53.
3. Qurbonov T. Portret yaratish uslubi haqida // O'TA, 1996, №6, -B. 32-35.

Internet saytlari

1. www.ziyo.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.saviya.uz
4. www.sharqyulduzi.uz
5. www.adabiyotgulshani.uz